

I. PSIXOLOGIYA FANINING TA'LIM VA SHAXS TARAQQIYOTIDAGI O'RNI: MILLIY VA XORIJIY TARJIBA

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA OILA QURISH MOTIVI VA NIKOHGACHA BO'LGAN XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

G'ayrat Shoumarov
"Profi University" Toshkent filiali rektori
psixologiya fanlari doktori, akademik

Xasanboy Abdusamatov
ISFT instituti professor v.b.
psixologiya fanlari doktori (DSc)


Annotatsiya. Ushbu maqolada professional ta'lim muassasasi talabalarining oilaviy hayotga munosabati o'rganilgan. Maqolada talabalarining oila haqidagi tushunchalari tahlil qilingan. Zamonaviy yoshlarning oila qurishdan maqsadi, turmush o'rtoq tanlash motivlari, farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlari, oiladagi funksiyalarini bilishi bo'yicha psixologik tahlillar keltirilgan. Maqolada psixologik tadqiqotlar natijasida olingan empirik ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oila, motiv, yoshlar, oilaviy hayot, oiladagi rollar, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, psixologik tadqiqotlar.

Kirish. Mamlakatimizda oila farovonligini ta'minlash, ajrimlar sonini qisqartirish maqsadida turli chora-tadbirlar tashkil etib kelinmoqda. Kun sayin ortib borayotgan ajrim holatlarining muhim omili bu yoshlarning oilaga tayyorlik jihatlari, nikohgacha bo'lgan xulq-atvor shakli bilan uzviy bog'liq. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida jami 9 729 961 ta oila mavjud. Respublikamiz hududlari orasida eng ko'p oilalar Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajralish soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Mamlakatimizda nikohdan ajrashishlar soni 2023-yil hisobidan 49,2 mingtani tashkil qilgan. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-aprel holatiga nikohlanuvchilar soni 48 582 ta, nikohdan ajralishlar soni esa 11 481 tadan oshgan.

Professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan sinaluvchilar tadqiqotda jami 1108 nafar sinaluvchi ishtirok etdi. Sinaluvchilar jinsi bo'yicha 15,2% o'g'il va 84,8% qiz bolalardan iborat (1-rasm). Shundan, 16-19 yoshgacha bo'lganlar – 82,7%, 20-24 yoshgacha bo'lganlar – 10,1% hamda 27-34 yoshgacha bo'lganlar – 4,5%ni tashkil etgan (2-rasm).



1-rasm. Professional ta'lim muassasalari talabalarining jins bo'yicha tafovuti

2-rasm. Professional ta'lim muassasalari talabalarining yosh bo'yicha tafovuti

Oilaviy munosabatlarda ota-ona oilasi bola uchun asosiy namuna vazifasini o'taydi. Professional ta'lim muassasasi talabalarining o'z oilaviy munosabatlaridan qoniqish darajasini aniqlash maqsadida kichik so'rovnoma o'tkazildi (1.1-jadval):

1-jadval

So'rovnoma natijalari

№	Javob variantlari	Javob variantlari (% hisobida)			
		Ha, shunday	Yo'q, unday emas	O'zida salbiy mazmun ifoda etgan javob	O'zida ijobiy mazmun ifoda etgan javob
1	Agar oila qursangiz, oilangizning ham ota-onangiz hayoti kabi turmushgizni davom etishini istagan bo'larmidingiz?	74,0	26,0		
2	Oila a'zolaringizning o'zaro munosabatlarida xatolar mavjud deb hisoblaysizmi?	21,3	78,7		
3	Siz oilaviy hayotda qanday xatolarga yo'l qo'ymaslikni ma'qul ko'rasiz?			46,0	54,0

So'rovnoma orqali olingan ma'lumotlar asosida ota-onasi kabi oilaviy munosabatlarni tashkil etishni istamaydigan sinaluvchilar 26% hamda oiladagi munosabatlarda xatoliklar mavjud deb hisoblovchilar 21,3%ni tashkil etgan. Shuningdek, oilaviy hayotda qanday xatoliklarga yo'l qo'ymaslik kerakligi haqidagi savolga 54% sinaluvchi o'zida ijobiy mazmunni aks ettiruvchi (rostgo'y bo'laman, turmush o'rtog'imga ishonaman, tushunishga harakat qilaman va boshqa) javoblarni,

46% sinaluvchi esa salbiy mazmuni aks ettiruvchi (salbiy holatlar qurboni bo'lganligi sababli yoki tajribalari, shuningdek, turli filmlar, do'sti, yaqinlari oilasidagi hayotiy ta'sirlar orqali olgan xulosalari asosida ichkilik ichmaslik, xiyonat qilmaslik va boshqa shu kabi "-ma" inkor affiksi bilan shakllangan) javob variantlarini keltirib o'tgan.


Oilaviy munosabatlardagi er-xotin rolining taqsimoti o'rganilib, bunda quyidagi natijalar olindi (2-jadval).

2-jadval

Yoshlar fikricha oiladagi rollar taqsimoti

№	Rollar	Oilada xotinning roli yuqori	Oilada er-xotinning roli teng	Oilada erning roli yuqori
1	Bolalarni tarbiyalash	30,9	64,1	5,1
2	Oilani moddiy ta'minlash	12,3	60	27,3
3	Oiladagi hissiy muhit	51,8	43,1	5,1
4	Ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish	41,9	52,7	5,4
5	Uy sohibi va sohibasining roli	61,0	34,8	4,2
6	Jinsiy sheriklik	51,8	43,1	5,1
7	Oilaviy madaniyatni tashkil etish	49,8	46,2	4,0

Professional ta'lim muassasasi talabalarining aksariyati oilada asosiy rolni er va xotin birgalikda bajarishi kerakligini ta'kidlagan bo'lsa-da, lekin asosiy mas'uliyat ayollar zimmasiga yuklanganligini ko'rish mumkin. Bolalarni tarbiyalash (30,9%), oiladagi hissiy muhitni yaxshilash (51,8%), ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish (41,9%), uy sohibi va sohibasi roliga ustunlik (61%), jinsiy sheriklik (51,8%), oilaviy madaniyatni tashkil etish (49,8%), asosan, ayollar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ekanligini ko'rish mumkin. Ayollar zimmasiga yuklanayotgani gender tenglik masalasida me'yoriy buzilishlar mavjudligini ko'rsatmoqda (3-rasm).




3-rasm. Oiladagi rollar taqsimoti.

Oiladagi moddiy ta'minot esa 27,3% ko'rsatkich bilan erkaklar zimmasiga yuklatilgan bo'lib, 12,3% ayollarga hamda 60% er va xotin birgalikda oila moddiy holatini yaxshilashi kerak degan xulosalar berilgan. Umimiy hisobda oilada ayollarning roli 42,8%ni, erkaklarning roli esa 8%ni tashkil etgan bo'lsa, er-xotin birgalikda roli 49,1% ekanligi qayd etilgan. Oiladagi rollar bo'yicha nisbat o'rtasidagi tafovut orqali ayollarning roli

erkaklarninikidan besh barobar yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Bu esa o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurligini, mazkur masalada o'g'il bolalarning oiladagi hissiy muhit, ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish, uy sohibi va sohibasining roli, oilaviy madaniyatni tashkil etish bo'yicha oilaga tayyorlashga e'tibor qaratish lozim.

Professional ta'lim muassasasi talabalarining oila qurishdagi asosiy motiv va qadriyatlarini o'rganish maqsadida "Oila qurish motivlari iyerarxiyasi" o'rganildi. Bunda oila qurishning asosiy va yetakchi omillari ketma-ketligi o'rganilib, oila qurishda birinchi o'rindan o'ninchi o'ringacha oila qurishda e'tibor qaratiladigan jihatlar tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra 1-o'rinda "Din talablariga mos hayot kechirish", 2-o'rinda "Mustahkam salomatlikka ega bo'lish", 3-o'rinda "Yaqin insonlar muhabbatini sezib yashash, do'stona munosabatlar o'rnatish", 4-o'rinda "Ma'naviy boy hayot kechirish", 5-o'rinda "Tashqi ko'rkamlikka ega bo'lish", 6-o'rinda "Moddiy farovonlikka ega bo'lish, rohat-farog'atda hayot kechirish", 7-o'rinda "Shaxs sifatida rivojlanish, havfsiz va himoyalangan bo'lish", 8-o'rinda "Erkinlik va demokratiya sharoitida yashash, to'laqonli mustaqilikka erishish", 9-o'rinda "Odamlarga xizmat qilish, kimnidir baxtli qilish yoki baxtli bo'lish" va 10-o'rinda "Martaba, hokimiyatga erishish yoki shuhrat va mashhurlikka ega bo'lish" egallagan (4-rasm).




4-rasm. Oila qurish motivlari.

Professional ta'lim muassasasalarini talabalarining boshqalardan farqli jihati yoshlar uchun oila qurishning asosiy motivi din talablariga mos hayot kechirish bo'lsa, ikkinchidan, mustahkam salomatlikka ega bo'lish, uchinchidan yaqin insonlar muhabbatini sezib yashash, ma'naviy boy hayot kechirish, tashqi ko'rkamlikka ega bo'lishdan iborat ekan. Professional ta'lim muassasasi talabalarining boshqalardan yana bir farqi tashqi ko'rkamlikka e'tibor qaratish jihatining iyerarxiyada nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etgani hamdir. Demak, bu yoshdagilar uchun botiniy go'zallik muhim deb xulosa qilish mumkin. Shuningdek, past natija qayd etgan "Odamlarga xizmat qilish, kimnidir baxtli qilish yoki baxtli bo'lish" tanlovi oila qurgach, bironlar xizmatiga tayyormaslikni ham anglatadi. Bu esa qaynona-kelin yoki er-xotin munosabatlarida xizmat qilishga tayyor emaslik yoki istamaslik ortidan kelishmovchiliklar kelib chiqishi omili bo'lishi mumkin.


Oilaviy ajrimlarning asosiy omili nizolardir. Biroq nizolarning ham konstruktiv yoki destruktiv tomonlari mavjud bo'lib, ajrimlar asosiy omili destruktiv nizolar sanaladi. Bunda shaxsning nizoga kirishuvchanlik darajasini aniqlash orqali oilada nizoni bartaraf etish yoki konstruktiv nizoga almashtirish ko'nikmasini o'rganish maqsad qilindi. "Nizoga kirishuvchanlik darajasini aniqlash" metodikasi orqali

nizolaga kirishuvchanlik darajasi yuqori sinaluvchilar (2%) psixologik xususiyatiga ko'ra bahs, munozara, tortishuv – ular nafas oladigan havo. Boshqalarni tanqid qilishni yaxshi ko'radi, ammo ularni tanqid qilganlarni tiriklay "yeb yuborishga" tayyordir. Vazminlikning yetishmasligi va qo'rslik odamlarni ulardan bezdiradi. Ularning do'stlari ko'p emas va ular o'z xarakteri ustida ishlashlari lozim. Nizoga kirishuvchanlik darajasi o'rta (30,5%) bo'lgan sinaluvchilar psixologik xususiyatiga ko'ra biroz nizoga kirishish darajasi yuqoriroq, biroq ilojsiz holatlardagina nizoga kirishadi. Vaqti kelganda amali va do'stlarini yo'qotib qo'yishdan qo'rqmay, o'z fikrini qattiq turib himoya qiladi. Bunda odob-ahloq me'yorlaridan chetga chiqmaydi, odamni haqorat qilmaydi. Shuning uchun odamlar uni hurmat qilishadi. Nizolashuvchanlik darajasi past bo'lgan sinaluvchilar (67,5%) psixologik xususiyatiga ko'ra tinchliksevar, nizolardan osonlik bilan chiqib ketadigan, uyda ham, ishda ham tortishuvli vaziyatlardan o'zini olib qochadigan insondir. Shuning uchun odamlar uni moslashuvchan inson, deb biladi. Ammo vaziyat taqozo qilganda prinsipiiallikni namoyon etish ham hurmatga loyiq xususiyat sanaladi. Olingan ma'lumotlar asosida oila quruvchi yoshlarning moslashuvchan ekanligini ko'rish mumkin, bu esa oilaviy hayotda nizolarni bartaraf etishning asosiy omilidir. Shuningdek, nizoga kirishuvchanlik darajasining o'ta past ko'rsatkichining yuqoriligi yoshlarning o'z haq-huquqlarini bilmasligini ham anglatadi (5-rasm).



5-rasm. Sinaluvchilarning nizoga kirishuvchanlik darajasi.


Barqaror oilaviy munosabatlarda o'zaro tushunish va bir-birini tinglash muhimdir. Oila quruvchi yoshlarning tinglash va muloqotda o'z-o'zini boshqarish xususiyatlari tahlil qilindi. Sinaluvchilarda tinglash ko'nikmasining yuqori (68,8%), o'rta (13) va past (18,2%) darajalari o'ganildi (6-rasm).



6-rasm. Tadqiqotda sinaluvchilarning tinglash ko'nikmasi darajasi

Professional ta'lim muassasasining 8,1% sinaluvchilarida kommunikativ nazorat sustligi (hulq-atvor barqaror, vaziyatga qarab o'zgaravermaydi muloqotda samimiy ravishda ko'ngildagi gapni gapirish ehtimoli yuqori: dangallik va cho'rtkesarlikning


kuchli ekanligi atrofda ba'zilarga yoqmasligi mumkin), 67% sinaluvchilarda kommunikativ nazorat o'rtacha (samimiyat darajasi yuqori, lekin ba'zida hissiyotlar "jilovi" bo'sh qo'yib yuboriladi: xulq-atvorda atrofda fikrlarini inobatga olish mavjud) hamda 24,9% sinaluvchilarda kommunikativ nazorat yuqori (tezlik bilan har qanday rolga kirisha olish; vaziyat o'zgarishi bilan shaxsiy xulq-atvorni osongina o'zgartirish; atrofda qanday taassurot qoldirilishini oldindan bilish) ekanligi aniqlangan (7-rasm).



7-rasm. Oila qurmagan yoshlarning kommunikativ nazorat darajasi.


Kommunikativ nazorat darajasi yuqori bo'lgan odamlar qaysi vaziyatda o'zini qanday tutish kerakligini biladilar, o'z emotsiyalarining ifodalanishini boshqaradilar. Biroq ular o'zlarini tabiiy tutishga qiynaladilar, voqealar rivojini oldindan payqab bo'lmaydigan vaziyatlarni xush ko'rmaydilar. Kommunikativ nazorat darajasi past bo'lgan odamlar o'zini tabiiy va ochiq tutadilar, lekin vaziyat o'zgarib, yangi vaziyatga moslashishda qiynaladilar. Bu esa oila qurish oldidan yoshlarning muloqotda o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmasini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Yoshlarning oilaga tayyorlik darajasi o'rganilib, umumiy hisobda oilaga 40-50% tayyor bo'lgan yoshlar 7,6%ni, nikohga 51-60% tayyor bo'lgan yoshlar 28,9%ni, oilaviy hayotga 61-70% tayyor bo'lganlar 37,2% hamda nikohga 71-83% tayyor bo'lganlar 17,9%ni tashkil qilgan (8-rasm).



8-rasm. Yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorlik darajasi

Mazkur natija esa o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki jinslar bo'yicha oilaga tayyorlik darajasi qiz bolalarda 64,5%, o'g'il bolalarda esa 61,5%ni tashkil etgan (9-rasm).



9-rasm. Jinslar kesimida oilaviy hayotga ma'naviy tayyorlik darajasi.

Oilaviy hayotga ma'naviy tayyorlik darajasining o'rtacha ko'rsatkichi 60%dan yuqori bo'lishi lozim. Olingan natijalarda ushbu ko'rsatkichning 60%dan yuqorligini ijobiy baholash mumkin, lekin, o'g'il bolalar va qizlar o'rtasidagi oilaga tayyorlik nisbatini tenglashtirish chorasini ko'rish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Oilada muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, kommunikativ nazorat darajasini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni odobnoma, tarbiya darslari mashg'ulotlariga kiritish, mashg'ulotlar davomida rolli o'yinlar, ishbilarmonlik o'yinlarini qo'llash, aqliy xujum metodidan foydalanish va ko'p yillik oilaviy hayotni boshdan kechirgan nuroniy otaxon va onaxonlarni mashg'ulotlarga taklif qilib, ularning oilaviy munosabatlardagi xato va yutuqlari, muloqotning ahamiyati haqidagi hikoyalarini tinglash, dars mashg'ulotlariga baxtli oila hayotini boshdan kechirayotgan aktyor va aktrisalardan iborat juftliklarni jalb etish muhim sanaladi.

Mahallalarda oilaviy munosabatlar bilan bog'liq muammosi bo'lgan oilalarni aniqlash, ularning muammolarini bartaraf etishga qaratilgan choralarni ko'rish orqali oilalarda tarbiyalanayotgan yoshlar uchun namunali oilaviy muhitni ta'minlashga erishish mumkin.

Yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, kitob mutolaasiga rag'batni kuchaytirish, turli zararli odatlardan himoya qilish orqali kelgusida ularning mustahkam oila qurishi uchun ruhan tayyor bo'lishini ta'minlashga qaratilgan choralarni ko'rish zarurati mavjud.

TALABALAR IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TOPSHIRIQLARNING O'RNI

Ruzaxon Melibayeva

Psixologiya fanlari doktori, professori

Toshkent tibbiyot akademiyasi kafedrasi mudiri

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'lim tizimida qiyinchiliklar vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni bartarafetishdagi yondashuvlar hamda talabalar ijodiy tafakkurining rivojlanishiga ta'lim jarayoni uchun yetarli bo'lgan o'quv materiallari bilan bir qatorda, doimiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli topshiriqlarning ta'siri atroflicha tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *tafakkur, ijodiy tafakkur, muammoli topshiriqlar, ta'lim jarayoni, ta'lim yo'nalishi, ta'lim bosqichlari, o'quv faoliyati, topshiriq.*

Ta'lim jarayonidagi ko'p yillik tajribalar va an'anaviy ta'lim muhitida, xususan, oliy ta'lim tizimidagi qiyinchiliklar vujudga kelishining asosiy sabablari (omillari, faktorlari) talabalar tomonidan o'quv faoliyatining ratsional, omilkor usullarini o'zlashtirmaganlik, aqliy mehnatda shaxsiy kuch va imkoniyatlarini bir tekis taqsimlay olmaganlikdan iborat bo'lib, bularning barchasi aqliy zo'riqishni keltirib chiqaradi. Talabalar aksariyat hollarda o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida o'quv faoliyatini tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bizningcha, ba'zi talabalar o'quv materiallarini mantiqiy, fikriy harakatlar yordamida eslab qolsalar, qolganlari esa ularni diqqat markazidan uzoqlashtiradilar.

Natijalar tahliliga asoslanib mulohaza yuritadigan bo'lsak, ta'lim subyektlari ko'pincha ma'ruzaning bir qismini tinglaydilar, uning mohiyatini bazo'r anglaydilar, to'liq konspektlashtirishga ulgurmaydilar. Kuzatishimizcha, bunday holatning o'quv yili mobaynida uzluksiz davom etishi yakuniy reyting tizimini talaba uchun qattiq sinovga aylantiradi. Yana shuni ta'kidlash joizki, oliy o'quv yurtining asosiy vazifalari talabani o'quv materiallari hamda asosiy manbalari bilan oqilona, mustaqil ishlashga o'rgatish, bilish faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarishning usullari bilan tanishtirishdan iboratdir [2].

Bizningcha, talabalarni mustaqillikka o'rgatish, ularga o'quv faoliyatini samarali uyushtirish ko'nikmasini singdirish o'zlashtirish ko'rsatkichini yuksaltiruvchi, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtiruvchi omil vazifasini bajaradi [3].

Kuzatishlar ko'rsatishicha, biz uchun nihoyatda zarur masala – talabalarni qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish va ayrim paytda duch keladigan muvaffaqiyatsizliklar oldida dovdirab qolmasdan, o'zini qo'lga olishga safarbar qilish. Mazkur omillarga nazariy jihatdan yondashsak, biz uchun ikkinchi omil zaruriyatning muhimligi tariqasida mulohaza, mushohada maydoniga chiqadi. Xuddi shu ikkinchi omil talabaga o'z qiziqishini boshqarish imkonini beradi. Modomiki shunday ekan, talabalarni ta'lim jarayonida faqat qiziqarli mashg'ulotlar

bilangina emas, balki yetarli darajada qiziq bo'lmagan (yoqtirmagan) narsalar bilan shug'ullanish zaruratini his etish ruhida kasbiy tayyorlash kerak. Lekin qiziqishni, o'quv motivatsiyasini faollashtirish yo'lini inkor qilish mumkin emas. Shu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, ko'zlagan maqsadga yetish uchun har ikkala yo'lni parallel ravishda talabalar ongiga singdirib borish ma'qul. Buning uchun ularda qiyinchiliklarni yenga olish uquvini, o'zini o'zi qo'lga olish fazilatini shakllantirish maqsadga muvofiq va, qolaversa, bularning barchasi ijodiy tafakkur bilan bevosita bog'liqdir. Talabalarga hamma uchun bir xil qiziq bo'lmagan turli o'quv fanlariga taalluqli materiallardan mustaqil topshiriqlar berib borish, ularda o'quv motivlarini rivojlanishiga yordam beradi. Topshiriqlar o'zining tuzilishi va oldiga qo'ygan maqsadi jihatidan turlicha bo'lib, qiziqishni, motivni (motivatsiyani), o'quv faoliyatini talaba tomonidan mustaqil boshqarishga qaratilgandir [1].

Shu bilan birga topshiriqlarni yechish ijodiy tafakkurni taqozo etib, turlicha usullarni, ularning variantlarini, modifikatsiyalarini talab qiladi. Jumladan, quyidagi muammolar yechimini talabalar diqqatiga havola qilib, ketma-ket bajarish vazifasini yuklash mumkin.

1-topshiriq: "NIMA, QAYERDAN, QANDAY?" Ishtirokchilar davra bo'lib o'tiradilar va noodatiy, to'liq tushunish qiyin bo'lgan predmet namoyish qilinadi. Har bir ishtirokchi tartib bilan uchta savolga javob berishlari kerak:

1. Bu nima?
2. Bu qayerdan olingan?
3. Bundan qanday foydalanish mumkin?

Javoblar ishtirokchilar tomonidan takrorlashga ruxsat etilmaydi va ular har bir savolga yangi, o'ziga xos javob berishlari talab qilinadi. Bu mashq uchun rekvizit kiritish eng oddiy usul hisoblanadi.

Topshiriq mazmuni. Yengil intellektual mashq bo'lib, ishtirokchilarning tafakkur tezligini faollashtiradi, tekshiriluvchilarni noodatiy g'oya keltirish va assotsiatsiyalar hosil qilishga undaydi.

Muhokama. Ishtirokchilar keltirgan javoblar orasidan eng qiziq va originali esda qolganligi aniqlanadi.

2-topshiriq: "ORIGINAL FOYDALANISH". Ushbu mashq sinaluvchilar e'tiborini odatdagi predmetlardan original foydalanish mumkin bo'lgan jihatlarni topishga yo'naltirilgan. Masalan, eski gazeta yoki qog'oz, sport xalqasi, gantel, g'isht, avtomobil shinasi, shisha idish qopqog'i, kuygan lampochka, plastik idish, sok solinadigan alyumin idish.

Topshiriqlar 4-5 kishilik guruhlarda bajariladi, buning uchun 10 daqiqa ajratiladi. Har bir guruh har bir predmetning qanchalik ko'p foydalanish mumkinligini yoritishi lozim.

Topshiriq mazmuni. Mashqlar ijodiy tafakkur sifatlari (tezlik, originallik, egiluvchanlik)ning muhokamasi uchun materiallarni tasavvur qilish imkonini beradi. Bu sifatlarni mashq qilish tekshiriluvchilarda atrofdagi predmetlar va ularning vazifalarini idrok qilishdagi shablonlarining o'zgarishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mashqni tashkil qilishda ishtirokchilarni rollar bilan ta'minlash va ularning rollarini o'zgartirib borish ham mumkin.

Muhokama. Rollar qanday taqsimlanishi, g'oyani kim ilgari surganligi, ishtirokchilar o'zlarini qanday tutganliklari, sinaluvchilarda qanday shaxs sifatlari ustuvor bo'lishi, odatda ishtirokchilar kundalik faoliyatda ham o'zlarini shunday tutishlari mumkinligi kabi savollar muhokama qilinadi.

3-topshiriq: "HARAKAT USULLARI". Tajriba jarayonida ishtirokchilarga iloji boricha ko'p usullar taklif qilish tavsiya etiladi. Tekshiriluvchilar tomonidan har qanday noan'anaviylikni hosil qilish, hal qilishga imkon beradigan harakatlarni amalga oshirish mumkinligi haqida ko'rsatma beriladi. Misol uchun, faqat sovg'aga ega bo'lishga intiling va original hamda eng yaxshi sovg'alarni to'plash, hosil qilishga harakat qiling. Sizda gazeta va skotch mavjud. Ushbu vositalardan foydalanib, faqat o'quv xonasida mavjud narsalardan qanday original sovg'a tayyorlash mumkin? Shuningdek, ushbu masala singari quyidagi topshiriqlar ustida ham mulohaza yuritib ko'ring: jihozlanmagan velosipedda yo'lovchi tashish; suzib ketayotgan qayiqning teshigini ta'mirlashga (teshik hajmi 2x2 sm, qo'lda maxsus yopishtirish uchun materiallar yo'q) harakat qiling [5].

Topshiriqlarni bajarish ishtirokchilardan faollikni talab etadi. Sinaluvchilar 3-4 kishilik kichik guruhlariga bo'linib topshiriqni bajaradilar. Muammo yechimini topish uchun variantlarni tanlash, yetakchilarni ajratib olish va ishchi guruhni shakllantirish lozim bo'ladi.

Topshiriq. Talabalar ijodiy fikrlashining asosiy fazilatlaridan (aniqlik, egiluvchanlik, o'ziga xoslik) noodatiy holatlarda foydalanish.

Muhokama. Har bir kichik guruh vakillari ma'lum bir usulni taklif qilishlari uchun quyidagi ikkita savolni muhokama qiladilar:

1. G'oyalarning paydo bo'lishiga nimalar yordam berdi va nimalar bu jarayonni qiyinlashtirdi?

2. Shaxsan siz o'z hayotingizda boshdan kechirgan shunga o'xshash vaziyatlarni eslang, muammolarni qanday hal qilgansiz? Iloji bo'lsa, aniq misollar keltirib, yechim taklif qila olasizmi?

4-topshiriq: "YER YUMALOQ". Yerning yumaloq ekanligini hamma biladi. Lekin aniq ma'nosi nima? Bu so'z o'yini bo'lishi mumkinmi? Psixologik nuqtayi nazardan, kichik bolalar so'zlarning ma'nosini tushunmasliklari mumkin, ammo kattalar bu jumlagacha boshqacha yondashadilar. Masalan, ular yerning dumaloqligiga ishonadilar. Dengizda yoki tekislikda aylanadigan tekis doiraning kosmosdan ko'rinishini tasavvur qiladilar. Bunday holda, yer qanday shaklda degani savolga ular "yumaloq" deb javob beradilar. Bu esa dunyoning tuzilishi haqidagi ularning fikrlariga zid keladi. Ba'zan oddiy holatlarda yerning "yumaloqligi"ni isbotlash qiyin bo'ladi.

Topshiriq 3-5 kishilik kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Topshiriqni bajarish vaqti 6-8 daqiqani tashkil etadi.

Topshiriq mazmuni. Fikrlarni yaratish, mashq qilish qobiliyatini ishlab chiqish bilan bir qatorda noaniq talqinlarning mavjudligini namoyish qilishga imkon beradi. Oqibatda, hatto tushunishdagi xatolar yuzaga kelishi mumkinligi aniq ko'rinadi.

Munozara. Ishtirokchilardan muammoni yechish jarayonida birinchi navbatda misollar yordamida tushuntirishi talab qilinadi. So'ngra ularga qanday qilib "Yerning yumaloq"ligini tasavvur qilishlariga doir fikrlarini ifoda etish taklif qilinadi. Fikrlar orasidan originallari ajratib olinadi.

Ushbu topshiriqlar bilan bir qatorda talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlanish holatining diagnostikasi uchun alohida tadqiqot metodikasini qo'llashga ham e'tibor qaratildi. Tajribamizning ushbu bosqichida P.Torrensning "Ijodiy tafakkur testining qisqartirilgan shakli"dan tajriba boshida va topshiriqlarni bajarib bo'lgandan keyin, tajriba oxirida takroran foydalandik.

Talabalarining mashqlardan keyingi natijalarini uchta ta'lim yo'nalishiga ko'ra tahlil qilishga to'g'ri keldi. Ijodiy tafakkur xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qo'lga

kiritilgan natijalarning ko'rsatishicha, ta'lim bosqichlari va yo'nalishlari kesimida talabalarning ko'rsatkichlari anchagina o'ziga xos.

Talabalarning ta'lim yo'nalishlari va bosqichlari kesimida ijodiy tafakkur ko'rsatkichlari uch soha bo'yicha ham tafovutga egaligi kuzatildi.

1-jadval

Talabalar ijodiy tafakkurining ta'lim yo'nalishi va bosqichi kesimidagi ko'rsatkichlari

Shkalalar	Psixologiya							
	1-bosqich (n=32)				3-bosqich (n=37)			
	Tajriba boshida		Tajriba yakunida		Tajriba boshida		Tajriba yakunida	
Tezlik	5,21	0,11	7,36	0,21*	5,84	0,15	8,45	0,22***
Egiluvchanlik	4,48	0,17	6,38	0,11**	5,98	0,25	9,52	0,14***
Originallik	4,71	0,13	6,45	0,20**	4,68	0,21	9,40	0,17***
Aniqlik	12,33	0,24	28,82	0,14***	12,82	0,17	30,35	0,20***

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$, *** $r \leq 0,001$

Talaba-psixologlarning birinchi va uchinchi kurslarida: tezlik (5,21 va 7,36; 5,84 va 8,45; egiluvchanlik (4,48 va 6,38); originallik (5,98 va 9,52). Tajribaning boshi va yakunlovchi bosqichi bo'yicha talabalar ko'rsatkichlarida statistik farq aks etmoqda.

Navbatdagi tajriba talaba-filologlar orasida o'tkazilib, quyidagi natijalar olindi.

2-jadval

Talabalar ijodiy tafakkurining ta'lim yo'nalishi va bosqichiga ko'ra ko'rsatkichlari

Shkalalar	Filologiya							
	1- bosqich (n=65)				3-bosqich (n=57)			
	Tajriba boshida		Tajriba yakunida		Tajriba boshida		Tajriba yakunida	
Tezlik	5,72	0,23	6,45	0,22**	5,27	0,17	7,32	0,23**
Egiluvchanlik	5,36	0,12	7,52	0,14**	6,50	0,21	11,58	0,12**
Originallik	4,68	0,21	8,40	0,17***	7,21	0,20	10,53	0,21**
Aniqlik	12,82	0,17	16,35	0,20***	17,21	0,18	31,46	0,21***

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$, *** $r \leq 0,001$

Xorijiy filologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining ijodiy tafakkur ko'rsatkichlari talaba-psixologlarning natijalari singari quyidagi ko'rinish oldi: tezlik (5,72 va 6,45; 5,27 va 7,32); egiluvchanlik (5,36 va 7,52; 6,50 va 11,58); originallik (4,68 va 8,40); aniqlik (17,82 va 16,35; 12,21 va 31,46).

Muammoli vaziyat yechimlari va topshiriqlarni bajarish jarayoni talaba – biologlarning ijodiy tafakkuri ko'rsatkichlari natijalarida ham namoyon bo'ldi. Bu holat navbatdagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Talabalar ijodiy tafakkurining ta'lim yo'nalishi va bosqichi kesimidagi ko'rsatkichlari

Shkalalar	"Tibbiy - biologik ish" ta'lim yo'nalishi talabalari							
	Tajriba boshida		Tajriba yakunida		Tajriba boshida		Tajriba yakunida	
	1-bosqich (n=71)				3-bosqich (n=64)			
Tezlik	5,84	0,15	8,15	0,22**	5,77	0,10	8,51	0,23**
Egiluvchanlik	5,98	0,25	7,27	0,14*	6,87	0,09	12,23	0,12**
Originallik	5,32	0,14	7,51	0,17***	7,64	0,18	11,72	0,21**
Aniqlik	12,24	0,17	17,30	0,20***	13,18	0,11	29,37	0,21***

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$, *** $r \leq 0,001$

Yuqorida tahlil qilingan ikkita ta'lim yo'nalishi talabalari natijalari singari talaba-biologlarning natijalarida ham o'ziga xoslik aniqlandi. Bu holat jadvaldagi ko'rsatkichlar singari quyidagicha ko'rinish oldi: tezlik (5,84 va 8,15; 5,77 va 8,51); egiluvchanlik (5,98 va 7,27; 6,87 va 12,23); originallik (5,32 va 7,51); aniqlik (12,24 va 17,30; 13,18 va 29,37).

Talabalarda ijodiy tafakkurining rivojlanishiga ta'lim jarayoni uchun yetarli bo'lgan o'quv materiallari bilan bir qatorda, doimiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni taqdim etish foydadan xoli emasligini tajriba natijalari ko'rsatmoqda. Shuni unutmash lozimki, talabalar tafakkurining rivojlanishi uzluksizligi bosqichga sababli uning doimiy kamol topishini ta'minlashga xizmat qiluvchi tadbirlarni muntazam, tizimli ravishda tashkil qilib borish lozim.

Bir necha seriyali muammoli topshiriqlar qo'yilishi talabalarda topshiriq mazmunini anglash, tabiatini baholash va yechimlar topish uchun o'ziga xos munosabatni yuzaga keltiradi. Ta'lim yo'nalishidan qat'i nazar muammoli topshiriqlar talabalarda tez, aniq, ixcham, puxta va original fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, muammoli vaziyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаева С. А. Теоретические подходы к изучению дивергентного мышления будущих психологов // Известия ДГПУ, 2015. – №4. – С. 21-24.
2. Айзенк Г. Проверьте свои способности. – М.: Педагогика-Пресс, 1992. – 177 с.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2010. – 544 b.
4. Мелибаева Р. Н. Талабалар тафаккурини ривожлантиришда ўқув машғулотларининг ўрни // Психология. – Бухоро, 2019. – №2. – Б. 35-40.
5. Умаров В. М., Мелибаева Р. Н., Сайдуллаев А. Н., Рахмонова Й. Р., Бекмиров Т. Р. Замоновий педагогик технологияларни тиббий таълимга тадбиқи. – Тошкент, 2019.
6. Мелибаева Р. Использование обобщённых способов учебной деятельности – фактор совершенствования творческого мышления // Вестник интегративной психологии. – Ярославль, 2019. – Выпуск 18. – В. 114-119.

YOSHLARNI DESTRUKTIV TA'SIRLARDAN HIMOYALASHNING AYRIM JIHATLARI

Umarali Qodirov

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori, psixologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalash, ularda mafkuraviy, g'oyaviy immunitetni tarkib toptirish, bu borada ta'lim tizimi mutaxassislari oldida turgan vazifalar singari masalalar xususida fikr yuritilgan, muayyan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: profilaktika, ekstremizm, terrorizm, motiv, destruksiya, subyekt, ta'lim, tarbiya, tanqidiy tafakkur, pedagog.

“Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Sh.M.Mirziyoyev

Hozirgi globallashuv sharoitida jahonda afsuski, ekstremizm va terrorizm mafkurasining jonlanib borayotganligi, turli mamlakatlar ijtimoiy, diniy, siyosiy va iqtisodiy tizimlari bilan ichki qarama-qarshilikni namoyon qilayotgani ko'zga tashlanmoqda. Agar o'tgan asrlarda ushbu qarama-qarshiliklarni urushlar va harbiy harakatlar bilan bostirish, bartaraf etish tendensiyasi ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lsa, XXI asrga kelib, kurash usullari, uslublari va shakllari anchagina o'zgardi.

Keyingi vaqtlarda davlat, mamlakatlarda ichki beqarorlikning kuchayishi, jamiyatda ijtimoiy, milliy, diniy taranglikning yuzaga kelishi, tuzum va tizimga qarshi norozilik kayfiyatining paydo bo'lishi hamda ularning amaliy o'zanga aylanishi kuzatilmoda. Bunda esa mustaqil davlatlarda turli destruktiv kuchlar tomonidan terrorizm va ekstremizmni qo'llab-quvvatlash, axborot tahdidi orqali aholi, ayniqsa yoshlarni shu halokat domiga tortishga urinish kuchaymoqda.

Axborot tahdidi xususida gap ketganda uning universalligi, boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta'sir qilishini ta'kidlash lozim. Salbiy jihatlarning natijasi shaxs dunyoqarashi, jamiyat barqarorligi, davlat tinchligi, jamoatchilik fikrini chalg'itish va oxir-oqibatda har bir mamlakatning ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga bo'lgan tahdidlarda ko'rinadi. Chunki turli ma'lumotlar, axborotning jamiyat, tashkilot, oila, shaxs ongiga kirib borishi jarayoni uncha ham bilinmaydi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma'lumotni o'zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o'zida esa mustahkam iroda, axborot iste'moli madaniyati, mafkuraviy immunitet, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olish qobiliyati rivojlangan bo'lishi zarur. Mamlakat aholisining barchasi bunday imkoniyatga ega, deyish qiyin. Shuning uchun axborot-psixologik barqarorlikni birinchi o'rinda davlat tuzilmalari xizmatchilari, jurnalistlar, pedagoglar, jamoat tashkilotlari xodimlari va bir so'z bilan aytganda ma'rifatparvar insonlar ta'minlashlari zarur.

Shu o'rinda terrorchi shaxsini yaxshiroq tushunish uchun terrorchi qanday maqsadlarda terrorchilik harakatlarini amalga oshirishini, uning ichki motivatsiyasini anglash zaruriyati yuzaga keladi

Adabiyotlarda yozilishicha, hech bo'lmasa bir marta terrorchilik harakatlarida ishtirok etgan kishilar xatti-harakatlari, subyektiv motivlari tahlili quyidagi asosiy motivlarni tasniflashga imkon beradi:

1. Foydani ko'zlash, manfaatparastlik motivi. Terror ham inson faoliyatining boshqa ko'rinishlari singari faoliyat uchun haq to'lashni taqozo etadi. Shunga muvofiq muayyan guruh insonlari uchun terror – pul topishning bir vositasidir. Hozirgi kunda masalan, IShID (Iroq va Shom islom davlati) safida jang qilayotgan askarlarning aksariyati pul uchun yollangan shaxslar, yoshlardir.

2. Mafkuraviy motivlar. Bular anchagina barqaror va insonning shaxsiy qadriyatlariga mos keluvchi, uning muayyan guruh, tashkilot, siyosiy partiya, uyushma g'oyalari, mafkurasiga sadoqatli ekanligini ta'kidlovchi, ko'rsatuvchi motivlardir.

3. Olamni o'zgartirishga faol kirishish motivi. Bu motiv terrorchi tomonidan dunyoning nomukammalligi va adolatsizligini idrok etib, shu kamchilikni "tuzatish" yo'lidagi jadal xatti-harakati bilan bog'liqdir.

4. Insonlar ustidan hukmronlik qilish motivi. Zo'ravonlik, tajovuz terrorchining o'z "Men"ini tasdiqlash, ifodalash uchun xizmat qiladi.

5. Faoliyat turi sifatida terrorning qiziqligi, o'ziga jalb qilishi motivi. Muayyan guruh vakillari xususan, o'ziga to'q va ma'lumotli kishilar uchun ba'zan terror faoliyatning yangi, sinab ko'rilmagan va g'aroyib shakli tarzida zohir bo'ladi. Bunday kishilarni terror bilan bog'liq tavakkalchilik, rejalarini ishlab chiqish, tayyorgarlik va rejani amalga oshirish kabi jihatlar birlashtiradi.

6. Hamfikrlari, do'stlari, ota-ona, qarindosh-urug', aka-ukalariga yetkazilgan zarar uchun qasd olish motivi (bu o'rinda hamjihatlik nuqtayi nazaridan terror jarayoniga qo'shilishadi, chunki inson uchun qadrli, yaqin bo'lgan kishilardan biri terrorchi bo'lgan).

7. O'zini namoyon qilish motivi. Bu paradoksal motiv bo'lib, bir tomondan, ruhan kuchli, irodali shaxslarning o'z jonidan voz kechib bo'lsa-da, terrorga hayotini bag'ishlashini bildiradi. Ikkinchi tomondan, bunday shakldagi o'zini namoyon qilish insonning faoliyat yuritish uchun zo'ravonlik va buzg'unchilikdan boshqa ish qo'lidan kelmasligi hamda imkoniyatlari cheklanganligidan darak beradi. Aniqroq aytganda, terror – shaxsning bu dunyoda o'z noshudligini tan olganligini bildiruvchi bir belgi.

Rossiyalik tadqiqotchi D.V.Olshanskiyning fikriga ko'ra, "...terrorizm o'z shafqatsizligi, maqsadga izchil intiluvchanligi va tashqi tomondan yetarli darajada samaradorligi bilan ajralib turuvchi zo'rlik ishlatish, ayniqsa, siyosiy zo'rlik ishlatishning alohida shaklidir" [3].

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan motivlardan tashqari terrorizm va ekstremizmga moyilligi bor shaxslarga xos ayrim individual-psixologik xususiyatlar ham borki, ular ba'zan shaxsning destruktiv faoliyat bilan shug'ullanishi uchun turtki vazifasini o'tashi mumkin. Ular quyidagilar:

- doimiy ravishdagi tajovuzkorlik holatida o'z "Men"ini himoya qilishga tayyorlik;
- o'z shaxs xususiyatlarini to'liq anglamaslik, quyi darajadagi o'zini o'zi baholash, shaxsiyatda buzilish unsurlarining mavjudligi;
- guruh tarkibida bo'lish, ya'ni guruhiy identifikatsiya yoki mansublikka kuchli ehtiyoj sezish;
- hayotda ijtimoiy adolatsizlik yuqori ekanligini ta'kidlash va o'z muvaffaqiyatsizliklarining sababini jamiyatdan qidirishga moyillik, tashvishlari uchun o'zgalarni ayblash;

- ijtimoiy jihatdan ajralib (yakkalanib) qolish, o'zini hech kimga kerak emasday his qilish, hayotiy istiqbolini ko'rmaslik.

Terrorchi xatti-harakatlari odatda yorqin asotsial, og'ish xususiyatlariga ega xulq-atvorni namoyon qiladi. O'z xohishlari, istaklarini qondirish yo'lida bunday insonlar zo'r berib tirishadilar, biroq ijtimoiy burchlarini ado etishga kelganda vazifa va mas'uliyatni boshqalar zimmasiga ag'darishga harakat qiladilar. Ularda risoladagi insonlarga xos mushohada va o'zini nazorat qilish xususiyatlari ko'zga tashlanmaydi, shu bilan birga ko'pincha, narkotik va me'yoridan ortiq alkohol iste'mol qilish, aysh-ishratga intilish, surbetlik, yon-atrofdagilarga xiralik qilish doimiy yumushlari bo'ladi.

Bugungi kun yoshlari har xil yo'nalishdagi qadriyatlarga ega bo'lib, turli tashqi omillar, yigit va qizlarning ijtimoiylashuv jarayonlari mazkur qadriyatlar mazmuni yo'nalishini belgilaydi. Bunday sharoitda insonlarning hayotiy pozitsiyalari bir xilda shakllanmaydi. Ayrim yoshlar sharoitga tez moslashsalar, boshqalarining hayot yo'lini topishi, o'zini namoyon qilishi juda qiyin kechadi.

Katta hayotga endi qadam qo'yayotgan avlod vakillariga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash qator jihatlarga ko'ra dolzarbdir. Avvalo, yoshlar jamiyatimizning kelajagini belgilab beruvchi muhim demografik qatlam hisoblanadi. Yoshlar shaxsini rivojlantirish esa axloqiy me'yorlar, qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatishi muqarrar bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy holat vaziyatida tobora murakkablashib bormoqda. Chunki, yoshlarning asosiy hayotiy rejalari ularning qadriyatlariga bog'liq ravishda shakllantiriladi.

Yigitlar va qizlar kuch-g'ayratlari, imkoniyatlarini jamiyatning yanada taraqqiy topishi uchun zarur sohalar rivojiga yo'naltirish, shunga mos holda shakllanadigan xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish psixologik-pedagogik ta'sir va yordamning birinchi o'rindagi vazifalaridandir. Bunda, xususan, ularning salohiyatini to'g'ri o'zanga yo'naltirish va adekvat qadriyatlar tizimini shakllantirish yoshlarni mavjud rasmiy yoshlar tashkilotlari safiga ko'proq jalb etish, to'g'ri tarbiyalash ishlari bilan uyg'un holda olib borilishi zarur.

Yoshlar jamiyatning turli destruktiv, tajovuzkor g'oyalarni qabul qilish va o'z faoliyatlarida qo'llashga moyil demografik qatlamidir. Mazkur kategoriyaga mansub shaxslarda hissiy ta'sirlanish, xavotir, axloqiy va hayotiy qadriyatlarni aniqlashtirish singari muayyan psixologik xususiyatlar alohida ko'zga tashlanadi. Ushbu xususiyatlar qaror qabul qilishdagi ochiqlik, qat'iylik singari jihatlar bilan uyg'unlashib ketadi.

Yoshlar psixologiyasining o'ziga xosligi, qadriyatlarning aniq yo'nalgan tizimi hali to'liq shakllanmaganligi nafaqat ta'lim-tarbiya sohasida ish olib boruvchi mutaxassislar, pedagoglar, balki ota-onalar, jamoatchilik, oila, mahalla hamkorligini taqozo qiladi.

Ayni paytda idrok qilingan ma'lumotni tahlil, mushohada, tafakkur qilish, rost, ishonchli axborotni yolg'on, ishonchsiz ma'lumotdan ajrata bilish, tanqidiy qayta ishlash insonning aqliy, ongli faoliyati mazmunini tashkil etadi.

Psixologiyada hayotning turli shart-sharoitlarida ma'lum bir ahamiyat kasb etadigan tafakkur shakllari ajratiladi. Destruktiv mazmunga ega targ'ibot-tashviqot turlariga nisbatan qarshi turish va ularning profilaktikasi uchun yoshlarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Tanqidiy tafakkur qabul qilinayotgan axborotni tahlil qilish va baholashda namoyon bo'ladi. Tafakkurning bu shakli eng avvalo, insonning kamchilik va xatolarini, zaif tomonlarini ko'rish, tushunish qobiliyatida ifodalanadi. Ayni paytda baholash faoliyati, nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tanqid va tahlil qilish imkoniyati insonni ruhlantiradi, unga

kuch beradi, ijobiy mazmundagi his-tuyg'ularni uyg'otadi, zero odamga atrof-olamni anglash, hodisalar, ularning sabab va oqibatlari xususida fikr yuritish xosdir.

Tanqidiy tafakkurga reja, faraz, taxmin, maqsad, bilimlarni, bir butun holda esa boshqa kishining shaxsi va faoliyatini baholashni misol sifatida keltirish mumkin. Tanqidiy tafakkur asosiy mazmun-mohiyatni to'g'ri anglab, baholanayotgan va o'rganilayotgan obyektning kamchiliklarini ko'ra oladigan subyektlarda uchraydi.

Tafakkurning mazkur ko'rinishiga ega kishilarga quyidagi xususiyatlar xos bo'ladi: rejalashtirishga tayyorlik, uddaburonlik, moslashuvchanlik, tirishqoqlik, o'z xatolarini tuzatishga intilish, onglilik va h.k. Tanqidiy tafakkur rivojlanishiga quyidagilar to'siq bo'lishi mumkin:

- haddan tashqari tajovuzkor bo'lib ko'rinishdan xavfsirash (ma'lumki, ayrimlarga go'daklikdan "tanqid qilish – hurmatsizlik belgisi" degan fikr singdiriladi);
- qasd olinishidan cho'chish (boshqalarning g'oyasini tanqid qilish orqali o'zimizga nisbatan ham xuddi shunday javobni olishimiz mumkin);
- g'oyalarni qayta baholash (inson o'z nuqtayi nazari va odatlangan tasavvurlarini o'zgartirgisi kelmaydi);
- ijodiy tafakkurning haddan tashqari rivojlanganligi.

Hozirgi vaqtda yaxshi ma'lumki, faqat kuch ishlatish yo'li bilan terrorizmni bartaraf etib bo'lmaydi. Ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan faoliyatgina terrorizm profilaktikasini amalga oshirishda eng samarali natija berishi mumkin.

Ekstremizm va terrorizmning nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyoga solayotgan xavfi nuqtayi nazaridan terrorizm mafkurasi profilaktikasi aniq bir kishi misolida qancha ilgari boshlansa, shuncha yaxshi samara beradi.

Jamiyatning psixologik holati tahlili turli ijtimoiy, etnik guruhlardagi hissiy-psixik yo'nalganlik (ijtimoiy-psixologik iqlim, muhit) fuqarolarning hayot, o'tmishi va kelajagiga munosabat xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy voqelikni idrok etishiga, xulq-atvor xususiyatlarining tarkib topishiga katta ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

Barcha jamiyatlarning umumiy psixologik, psixik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga asosan, suitsid holatlari, nevroz, psixoz holatlari statistikasini hamda psixik epidemiyalar faktlarini kiritish mumkin.

Psixologik nuqtayi nazardan jamiyat a'zolarining umidlari, optimistik qarashlari doimiy ravishda mustahkamlanib borganda ekstremistik kayfiyatlar ta'siriga tushish holatlari keskin ravishda kamayadi. Bu degani, jamiyat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan muvaffaqiyatlarni keng xalq ommasi ongiga yetkazish demakdir.

Globalashuv jarayoni ketayotgan hozirgi davrda psixologlar, pedagoglar, ota-onalar, mahallalar faollari uchun yoshlarda aksilterrorchilik ruhidagi ijtimoiy ongni shakllantirish, mafkuraviy immunitet, axborot iste'moli madaniyatini tarkib toptirish, bu boradagi yangidan yangi metodikalar, texnologiyalar, usullarni amaliyotda samarali qo'llash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy-psixologik, pedagogik jihatdan jamiyat uchun foyda keltiradigan fuqarolar, yosh avlodni tarbiyalashda korreksion-trening mashg'ulotlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. Bunda amaliyotchi psixologlar trening mashg'ulotlari davomida muayyan psixologik usullardan foydalanishlari tavsiya etiladi. Bu kabi mashg'ulotlarda qatnashgan ishtirokchilar olgan bilim va malakalarini yoshlarni destruktiv g'oyalar, guruhlar ta'siridan himoyalashga yo'naltirilgan profilaktika tadbirlarida qo'llashlari mumkin.

Oilada ota-onalar g'oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini o'rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan pedagog olim H.Norqulovning ta'kidlashicha, tadqiqotda ishtirok etgan 45% ota-ona farzandlarining

yurish-turishini qattiq nazorat qilishini, 30% yaxshi gapirish orqali tushuntirishini, 25% esa tarbiyalash jarayonida farzandlari bilan fikr almashish, suhbatlashish, tushuntirish usullaridan foydalanishlarini bildirishgan.

Hozirgi zamon ota-onalarning farzandlarida fuqarolik ongi, pozitsiyasi, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar shakllanilishiga nisbatan beparvoligi o'ta og'ir oqibatlariga olib keladi. Ma'lumki, tabiat, yashash uchun kurash qonunlariga ko'ra eng kuchli jonzotlar yashab qoladi. Majoziy ma'noda aytganda, hozirgi vaqtdagi globallashuv sharoitida ham psixologik, mafkuraviy, g'oyaviy jihatdan kuchli fuqarolarga ega davlatlar jahonda o'zining munosib o'rniga ega bo'ladi. Zero, jahonning turli davlatlarida bo'lib o'tayotgan noxush hodisalar, terrorchilik aktlari mazkur vaziyatlar, destruktiv holatlar, faoliyat barcha uchun kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligini ko'rsatmoqda. Ya'ni, hech kim destruktiv g'oyalar, destruktiv faoliyat oqibatlaridan to'liq himoyalangan. Shuning uchun ogohlik, sergaklik davr talabidir. Jamiyat oilalardan tashkil topgan ekan, har bir oilada voyaga yetayotgan farzandning, yoshlarning qanday tarbiyalanishi kelajakda mamlakatning istiqbolini belgilovchi muhim omil ekanligini hech birimiz yoddan chiqarmasligimiz zarur.

Ta'lim oluvchilar ota-onalari va pedagoglarning birgalikdagi o'zaro munosabati modelini yaratish ta'lim muassasasi va oilaning bir-biriga ko'rsatadigan ta'sirini muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik-pedagogik mazmundagi barcha ishlar zamirida davlat, jamiyat, tashkilot va muassasalarning o'zaro hamkorligi darajasida amalga oshiriladigan vazifalar aks etishi va ular tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan bo'lishi zarur. Psixologik-pedagogik ta'sir quyidagi yo'nalishlar asosida olib borilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- yoshlarda kasbiy, ongli va ijtimoiy faoliyati strategiyasini, kelajak, istiqboldagi hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradigan qadriyatlar tizimini tarkib toptirish;

- ijtimoiy takomil va mas'uliyat hissi me'yori belgilaydigan ma'naviy ta'limni maqsadga muvofiq amalga oshirish, tafakkur madaniyatini shakllantirish;

- yoshlar ham ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan jamiyatning turli sohalaridagi barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlovchi hayot tarzini shakllantirishga yo'naltirilgan qadriyatlar ustanovkalari (yo'l-yo'riqlari)ni aniqlashtirish, umumlashtirish.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni. [Elektron resurs]: <https://lex.uz/docs/-3026246>.

2. Норкулов Х.Д. Ота-оналарнинг ғоявий-тарбиявий билимларини оширишнинг ижтимоий-педагогик асослари: Педагогика фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 2007.

3. Ольшанский Д.В. Психология терроризма. –СПб: Питер, 2002.

4. Қодиров У. Ёшларни деструктив таъсирлардан ҳимоялашнинг психологик жиҳатлари. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2013.

5. Kadyrov U.D., Kadyrov G.U. Drug addiction as a social-psychological problem // Science and innovation international scientific journal, 2024. – Volume 3. – PP. 80-83.

6. Qodirov U. Psixologik xizmat – zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi // Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 2023. – № 1(1). – С. 21–24.

ZAMONAVIY TA'LIMDA FANLARARO ALOQADORLIKNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSI VA MUHIM OMILLARI

Gulchehra Kurbonova

O'zbekiston davlat konservatoriyasining "Musiqiy pedagogika" kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Zamonaviy ta'limda fanlararo aloqadorlik ko'p qirrali murakkab pedagogik muammo sifatida faqat vaqt bo'yicha amalga oshirilishi bilan chegaralanmasdan, balki o'quv materialining mazmunini tashkil etuvchi dalillar, tushunchalar, qoidalar, nazariyalar va shu kabilar bilan ham tavsiflanadi. Mazkur maqolada predmetlararo aloqadorlik asosida bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi, chuqurlashtiruvchi o'quv predmetlarini mazmun va mantiqiga ko'ra yaxlit holatga keltirish, ya'ni tizimlashtirish, ularni Davlat ta'lim standarti doirasida muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, ixtisoslik, fanlararo aloqadorlik, integratsiyalash, umumkasbiy, psixologik tahlil, didaktik tizim, majmuaviy, muvofiqlashtirish, tizimlashtirish, umumkasbiy.

Zamonaviy ta'limda fanlararo aloqadorlik muammosining qo'yilishi, eng avvalo, asosiy diqqat-e'tiborni o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quv predmetlarini o'rganishni muvofiqlashtirish va o'quvchilarda mazmunan mukammal, mantiqan tugal tizimli bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratiladi. Fanlararo aloqadorlik ta'lim mazmunining tarkibiy mantiqiy jihatlariga ahamiyat berishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan u didaktik muammo, prinsip, shart-sharoit, vosita, metod kabi yo'nalishlarda tadqiq etilib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga joriy etilishi zarur. Tahlillarimiz fanlararo aloqadorlik masalasini nazariya va amaliyotda quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etilayotganligini ko'rsatadi [4].

Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishda ko'proq umumilmiy, umumkasbiy va maxsus o'quv predmetlari orasidagi aloqadorlik tadqiq etilayotganligi ham ma'lum. Bunday aloqadorlik tabiiy hol bo'lib, sun'iy qurilmalar va texnologiya jarayonlari asoslarini ilmiy ravishda anglashga imkon beradi. Psixolog olimlar Y.A. Samarina, B.G. Ananyev, N.F. Talizina, N.G. Davletshin, E. G'oziyev kabilar o'z shogirdlari bilan o'tkazgan tadqiqotlarda o'quv predmetlari aloqadorligining psixologik mohiyatini aniqlab, u fanlararo va tizimlararo aloqadorlikni ta'minlash asosi ekanligini isbotlab berganlar.

V.A. Skakun kasb-hunar ta'limini o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda fanlararo aloqadorlikni quyidagicha tasniflab tadqiq etishni tavsiya etadi:

1. O'quv materialining mazmuni bo'yicha;
2. Shakllanishi ko'zda tutilgan xatti-harakat usullari (ko'nikma va malakalar) bo'yicha;
3. Ta'lim metodlari va vositalari bo'yicha [2].

Fanlararo aloqadorlikning turli jihatlariga ko'ra tasniflab ularning roli va o'rnini baholash ularni amalga oshirish usullarini aniqlash imkonini beradi. fanlararo aloqadorlikdan zamonaviy darsning dolzarblashtirish, yangi materialni o'rganish,

qo'llash, nazorat qilish, uyga vazifa berish kabi barcha bosqichlarida foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Bizningcha, amaliyotda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirilishiga quyidagilar ma'lum ma'noda to'sqinlik qiladi:

1. O'quv predmetlarida o'zaro muvofiqlashtirilmagan atama (termin) va tushunchalarning qo'llanilishi;

2. O'quv materialidan asosiy g'oya, nazariya, masala yoki tushunchalarning ajratib olinmaganligi yoki ko'rsatilmaganligi;

3. Ilmiy bilimlarning ichki aloqadorligini hisobga olinmaganligi (bilimlarda mantiqiy tugallikning hisobga olinmaganligi);

4. O'quv predmetlarining tarqoqligi (yaxlit holda tashkil etilmaganligi va aniq yagona maqsadni ko'zda tutmaganligi), ularning mazmunan uzviy bog'lanmaganligi va izchil o'rganilmaganligi;

5. O'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, predmetlarni o'zaro aloqadorlikda o'qitishga munosabati va shu kabilar.

Fanlararo aloqadorlik tushunchasini qanday pedagogik kategoriyaga kiritish haqida yagona fikr yo'qligiga qaramay, u o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Fanlararo aloqadorlikni pedagogik muammo sifatida talqin etib, uning yordamida o'quvchilar tomonidan kasbiy bilim va xatti-harakat usullarini tizimli o'zlashtirishlarini aniqlashga harakat qilamiz. Chunki predmetlararo aloqadorlikni o'rnatish, belgilab olish (qayd etish) va amalga oshirishning zarurligi har tomonlama bilimdon, mustaqil va ijodiy faoliyat ko'rsata oladigan mutaxassis shaxsni tarkib toptirish maqsadini ko'zda tutadi.

Genetik jihatdan predmetlararo aloqadorlik o'rganilayotgan ob'yektlar aloqadorligi (predmetlar, insonlar, hodisalar va jarayonlar)dan kelib chiqadi. Fanlararo aloqadorlikning metodologik asosi moddiy olamning yaxlitligi, nazariya va amaliyotning birligi, olam, jamiyat va tafakkurning o'zgarishi va rivojlanishi hisoblanadi.

Fanlararo aloqadorlikning psixofiziologik asosi inson tafakkuri, ya'ni fikr yuritish tabiatidan kelib chiqadi. Chunki predmetlararo aloqadorlik o'rganilayotgan ob'yektlarning yangi qirralarini bilishga imkon beradi va ko'lam jihatdan keng va chuqur, mohiyatiga ko'ra yaxlit tizim shaklidagi bilim, xatti-harakat usullari hamda shaxsiy fazilatlarning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktik nuqtai nazardan olib qaraganda, fanlararo aloqadorlik o'qituvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro hamkorlik faoliyati jarayonida o'rganilayotgan ob'yektlarning mazmuni va mohiyatini ochib beradi. Fanlararo aloqadorlikning didaktik jihatdan muhimligini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. "Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish mukammal bilimlar tizimini tarkib toptirish va rivojlantirishning zaruriy shartidir;

2. Moddiy dunyoning yaxlitligiga asoslangan holda, dialektik dunyoqarashni shakllantirishda ta'lim mazmunining barcha tarkibiy qismlari organik aloqadorlikni talab etadi;

3. U zamonaviy texnika, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalari, mulkchilikning shakllari, yangicha xo'jalik yuritish va shu kabilarning ilmiy asoslari mazmuni hamda mohiyatini anglab yetishga imkon beradi;

4. O'rganilayotgan o'quv predmetlarini mazmunan o'zaro muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi;

5. Fanlararo aloqadorlik o'quv materialini takrorlanishiga chek qo'yish, o'quv vaqtini iqtisod qilish kabilar bilan shaksiz tashkiliy-iqtisodiy samara beradi;

6. Ta'lim-tarbiya jarayonini majmuaviy muvofiqlashtirib, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini oshishiga imkon beradi".

O'quv materiali uning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi muhim bo'lgan jihatlarni aniqlab olish, unga mos o'quv-bilish faoliyatlarini samarali tashkil qilish uchun psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Psixologik tahlil mantiqiy tahlil funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Psixologik tahlil o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda uni dolzarblashtirish, yangi tushuncha va xatti-harakat usullarini shakllantirish, mustahkamlash va boshqa bosqichlarda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish hamda ular yechimini topish usullarini belgilab olishga imkon beradi.

1. O'quv materiali qanday tarbiyaviy ahamiyatga egaligini aniqlash maqsadida tahlil qilinib, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar uyg'unligiga erishiladi.

2. Amalga oshirish - oldindan belgilab olingan aloqadorlikni bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishni ko'zda tutadi.

3. Nazorat qilish bosqichi ko'zda tutilgan maqsad bilan olingan natijalarni qiyoslab xulosa chiqarish va unga mos ish ko'rishni talab etadi. Bu bilan oldingi bosqichlarga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish imkoni ham hosil bo'ladi.

Kasb-hunar ta'limi jarayonida (amaliyotida) predmetlararo aloqadorlikni amalga oshirish muammosini tadqiq etish bu borada bir qancha to'siqlar mavjud ekanligidan darak beradi.

- o'quv rejasining ko'p predmetliliigi (yil sayin o'quv predmetlarining soni ortib bormoqda);

- umumilmiy, umumkasbiy va mutaxassislikka oid maxsus o'quv predmetlarini o'rganish vaqti, mazmunining hajmi va o'rganish sur'ati bo'yicha bir-biriga muvofiqlashtirilmaganligi;

- fanlararo aloqadorlik ta'minlanmaganligi sababli turli o'quv predmetlarini o'rganishda ma'lum o'quv materialining bir necha marta takrorlanishi;

- amaliy mashg'ulotlarda, ishlab-chiqarish va pedagogik amaliyotlarda o'quvchilarning nazariy jihatdan o'zlashtirgan bilim va xatti-harakat usullarini ko'p hollarda yetarli darajada hisobga olinmasligi;

- kasbiy ta'limning uzviylik, kasbiy yo'nalganlik, barqarorlik va dinamik o'zgaruvchanlik, reduksiyalash va motivatsiya kabi o'ziga xos prinsiplariga yetarli darajada e'tibor berilmasligi;

- dasturiy materialda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga yetarli darajada e'tibor berilmaganligi va shu kabilar [1].

Shuningdek, ko'p hollarda o'qituvchilar ham fanlararo aloqadorlikni amalga tatbiq etish borasida metodik jihatdan yetarli darajada tayyorgarlikka ega emaslar. Bu holat ularni yangi texnika, ilg'or ishlab-chiqarish texnologiyasi, xo'jalik yuritish usullari kabilarning mohiyatini chuqur bilmassliklari, qolaversa, o'zishlariga loqaydlik bilan qarashlari natijasida kelib chiqadi.

Tahlil va natijalar. Tahlillarimiz va shaxsiy tajribamiz fanlararo aloqadorlikni quyidagi jihatlarga ko'ra turlash va amaliyotda qo'llash mumkinligidan dalolat beradi:

Xronologik vaqt mezonini jihatdan:

1. Oldin (avval) o'rganilgan;

2. Bir vaqtning o'zida parallel o'rganiladigan – yo'ldosh;

3. Kelajakda o'rganiladigan.

Fanlararo aloqadorlik ko'p qirrali murakkab pedagogik muammo sifatida faqat vaqt bo'yicha amalga oshirilishi bilan chegaralanmasdan, balki o'quv materialining mazmunini tashkil etuvchi dalillar, tushunchalar, qoidalar, nazariyalar va shu kabilar bilan ham tavsiflanadi, umumiyliigi bo'yicha aloqadorlik quyidagilarni ta'minlaydi va imkoniyat yaratadi:

- o'quv materiali tarkibiga kiruvchi dalillar, tushunchalar hukm, xulosa va, nazariyalar tarkib topishi uchun zaruriy tayanch hisoblanadi va o'rganilayotgan ob'yektning eng muhim jihatlari, aloqalari, munosabatlarini to'liq idrok etilishini ta'minlaydi;

- tushunchalar o'rganilayotgan obyektlarning eng muhim jihatlari, aloqalari, munosabatlariga oid aloqa va munosabatlarni o'zida aks ettirib, nazariy umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avliyoqulov H.N. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasining amaliy asoslari. – Buxoro: Muallif, 2001. 56 b.

2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (barcha mutaxassislik magistratura yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. - T.: 2003. – 174

3. Abdukarimov X. Профессиональное воспитание личности учителя в процессе непрерывного педагогического образования. Автореф. дисс. докт. пед. наук. – Т., 1997. – 46с.

4. Хайдаров Ё. Ўрта махсус мактаб педагогикаси масалалари: умумий ва касб-хунар таълими бирлиги. – Тошкент: Меҳнат, 1992. – 140 б.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА И ВЕРБАЛЬНОЙ АГРЕССИВНОСТИ ПОДРОСТКОВ РАЗНОГО ВОЗРАСТНОГО ПЕРИОДА

Ильзира Мухамеджанова

*Преподаватель кафедры Общей психологии
факультета Социальных наук Национального
Университета Узбекистана им. Мирзо Улугбека*

Севара Ражабова

*Студентка Национального Университета
Узбекистана им. Мирзо Улугбека*

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию взаимосвязи чувства одиночества и вербальной агрессии подростков разного возрастного периода отечественных и зарубежных авторов. В данной работе использовалось определение Р. Бэрона, принятое с учетом мотивационных предпосылок. Как виды одиночества могут привести повышению агрессивного поведения, также к какому именно виду агрессии при положительной или отрицательной корреляции. Приведены разработки и факторы, влияющие на составляющие агрессии.

Ключевые слова: агрессия, агрессивное поведение, агрессивные действия, злокачественная агрессия, деструктивность, чувство одиночества, изоляция, поведенческие отклонения.

Агрессия у подростков всегда являлась актуальной темой, с каждым годом или даже столетиями агрессивность среди подростков всё выше, но у каждого временного промежутка своя причина. Подростковый возраст самый эмоциональный период в жизни человека, период активной социализации, самореализации и формирование личности, сильнее всего на наше поколение

влияет интернет. Сейчас каждый может общаться онлайн и возможность в любое время связаться с кем-то, кто далеко не составит труда. Но, теряется возможность общаться в живую в столь быстро меняющемся мире. Отсутствие личного общения за счёт интереса к жизни в онлайн формате, в итоге приводит к уменьшению чувства единения с коллективом. В следствие чувство одиночества переживаемого подростком и старания избежать данного состояния приводит к повышению агрессивного поведения и трудностям личностного развития и проблем с социальными навыками.

В связи с этим актуальность исследования взаимосвязи чувства одиночества с агрессивностью имеет несколько причин. Во-первых, имеется ли взаимосвязь чувства одиночества и агрессивности, насколько сильна данная связь и каковы факторы влияния. Во-вторых, феномен агрессивности и субъективного чувства одиночества являются важными в современном обществе в связи с повышением социальной тревожности в целом, что приводит к агрессивному поведению и усилить чувство одиночества. Благодаря пониманию причин данного феномена можно разработать эффективные средства для работы с учащимися, данная социальная группа часто находится под большим социальным давлением и напряжением за счёт школьной жизни и её требований.

Разработками проявлений агрессивности в подростковом возрасте занимались многие учёные, такие как: Бендером. Л., Хорни. К., Фромм. Э., Басс и т.д. Обобщая их работы можно сказать, «агрессивные действия, направленные на разрушение, действия, предназначенные для защиты, и действия, осуществляемые с конструктивной целью, то, пожалуй, надо расстаться с надеждой выйти на понимание «причин», лежащих в основе этих действий» [3, 12].

Фишбах С. считает необходимым учитывать мотивационные факторы агрессивности при определении его вида. Получается агрессия – это форма поведения. Причиной проявлений является составляющее агрессии, а это эмоции, мотивы и установки в совокупности. «Агрессоры действуют расчётливо, нападающие имеют и другие цели, которые могут быть для них более важными» [1, 24]

Фромма. Э «...в конечном счете пришел к понятию доброкачественной агрессии. А специфически человеческую страсть к абсолютному господству над другим живым существом и желание разрушать (злокачественная агрессия) я выделяю в особую группу и называю словами «деструктивность» и «жестокость»» [3, 12].

Далее, делили агрессию на вербальную (действия направленную на нанесение психического ущерба), физическую (нанесение телесных повреждений), активную (проявление в словах) и пассивную (проявлялась неявным саботажем и противодействиями), прямую (вредоносные действия против желанной жертве) и косвенную (действия против окружения жертвы и тому, что ему дорого). Зельман также отметил, что имеется обусловленность агрессии раздражителем (действия направлены на решение проблемной ситуации) и побуждением (желанием получить выгоду).

Благодаря высказанным выше данным можно сказать, что агрессивность не всегда является чем-то плохим, всё зависит от того, какова цель и действия, совершаемые под данным состоянием.

Проблемы чувства одиночества были не очень актуальны в советской литературе, но всё же имеются авторы, которые изучали одиночество в

контексте проблем общения. Причастны работы таких авторов, как: Леонтьев. А. А, Абульхановой-Славской. К. А, Орлова. Г. П., Кона. И. С и др.

Подход данных учёных можно кратко охарактеризовать, как: «одиночество – это ощущение, проявляющееся в виде потребности включения в группу или потребности контакта с кем-либо» [2, 3]. Особенно ярко проявляется чувство одиночества в наше время, ведь люди находясь в реальном мире имея множество так сказать друзей в социальных сетях, не проживают то, что происходит с каждым из нас в реальном внешнем мире, теряя смысл важности контакта живую. Вся эта изоляция приводит к повышению тревожности, агрессивному поведению и депрессии, вследствие чего чувство субъективного одиночества у учащихся-подростков растёт лишь выше, что приводит к агрессивным эмоциональным и поведенческим отклонениям.

Список использованной литературы:

1. Берковиц Л. Агрессия: причины, последствия и контроль. – СПб: Прайм-Еврознак, 2001.
2. Садлер У.А., Джонсон Д. Т. От одиночества – к аномии. М.: Прогресс, 1989.
3. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. – М.: АСТ, 2004.

ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK OMILLARI

Dildora Madjidova
*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim, O'zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy tadqiqot instituti "Inklyuziv ta'lim" bo'limi boshlig'i*

Kirish. Mamlakatimizda alohida ehtiyojli shaxslarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilayotgan katta e'tibor natijasida qonunchilikda va jamiyat hayotida e'tiborga loyiq o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi normalar takomillashtirildi. Jumladan, 57-moddada nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilab qo'yilgan. Ushbu moddada davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning turmush sifatini oshirish, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etish uchun ularga shart-sharoitlar yaratish, ularning asosiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'rishi bilan bir qatorda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning ishga joylashishi, ta'lim olishiga ko'maklashish, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlanishimasalalari mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi statistik ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekistonda yashaydigan jami oilalar soni 9,7 mln.oila, shuningdek, 152,6 ming nafar shaxslar, jumladan 65,2 ming nafar

nogironligi bo'lgan bolalar mavjud bo'lib, 1 oyda 535 ming so'm nogironlik bo'yicha va 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bola parvarishi uchun nafaqalar ajratilmoqda [3]. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan bolalar soni – 159 728 nafarni tashkil qilib, hududlar bo'yicha Qoraqalpog'iston R. – 10 292; Andijon – 15 185; Buxoro – 5 832; Jizzax – 8 421; Qashqadaryo – 19 038; Navoiy – 6 270; Namangan – 12 130; Samarqand – 19 466; Surxondaryo – 13 863; Sirdaryo – 5 761; Farg'ona – 14 986; Xorazm – 9511; Toshkent sh. – 8 579; Toshkent v. – 10 394 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, 7 ta bolalar internat-uyida 2192 nafar nogironligi bo'lgan bolalarga davlat tomonidan parvarish ta'minlanmoqda [4].

2022-yil 17-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonga asosan 2022-yil 1-apreldan boshlab o'zgaralar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan bolaning qonuniy vakiliga har oyda 500 000 so'm miqdorida (har oylik) parvarish nafaqasi to'lovi joriy etilgan [5].

O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida. Bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi belgilab qo'yilgan. Davlat bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularga ijtimoiy yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi.

2022-yil 17-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonning asosiy maqsadi nogironligi bo'lgan shaxslar, ayniqsa, doimiy parvarishga muhtoj bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish va yangi yondashuvlarni joriy etish belgilangan.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2008-yilda 2-aprel – Xalqaro autizm muammosi haqida ma'lumot tarqatish kuni deb qabul qilingan bo'lib, shu vaqtdan boshlab bu kun har yili nishonlanib kelinmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har 88 bolaning biri autizm sindromi bilan dunyoga keladi. Bu ma'lumot 2012-yilda Autism Speaks tashkiloti tomonidan taqdim etilgan. Dunyo miqyosida esa 67 milliondan ortiqroq inson autizm sindromiga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 6-iyuldagi "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr)" ratifikatsiya qilish haqida"gi O'RQ-695-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni, 2020-yil 13-oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori asosida O'zbekistonda oilada imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishiga oid oilalarning pedagogik savodxonliklarini oshirishga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Respublikamizda oilada imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishi metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar N.Sh.Abdullayeva, B.K.Abidov, M.N.A'zamova, M.M.Berdiyeva, L.R.Mo'minova, N.Musayeva, D.A.Nurkeldiyeva, T.L.Xurvaliyeva, M.N.Xushnazarova, R.Sh.Shomaxmudova, F.Qodirova, D.S.Qaxxarova, D.Yusupov, D.B.Yakubjanova va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlarida imkoniyati cheklangan bolalarni rivojlantirishning

istiqbolli yo'nalishlari, pedagogik sharoitlari, inklyuziv kompetentlik, inklyuziv texnologiyalarning qo'llash amaliyoti bo'yicha izlanishlar: N.P.Artyushenko, Yu.V.Boginskaya, N.A.Gluzman, N.B.Sodnomova, A.S.Sunsova, I.N.Xafizullina, N.P.Xodakova, Ye.V.Chirkovalar tomonidan tadqiq etilgan;

“2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjatda 100 ta maqsad tasdiqlandi. 65-maqsad - Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish bilan bog'liq. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo'nalishlari etib, quyidagilar belgilandi [2]:

- ijtimoiy yordamga muhtoj va ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha oilalar va shaxslarni ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish;
- majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayonga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish;
- aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tish hamda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash;
- aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash;
- ijtimoiy xizmatlarni oilalarga bevosita mahalla darajasida ko'rsatish amaliyotini joriy etish.

Bu borada alohida ehtiyojli farzand tarbiyalayotgan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda mahallalarda faoliyat olib boruvchi ijtimoiy xodimlardan kerakli bilim va ko'nikmalar talab qilinadi. Shu bilan birga, ijtimoiy ish xodimi alohida ehtiyojli farzand tarbiyalayotgan oilaning xususiyatlarini yaxshi anglagan bo'lishlari va alohida ehtiyojli bolalarni ta'lim olishida ota-onalarga inklyuziv ta'lim bo'yicha axborotlarni yetkaza olishi, ota-onalarga farzand tarbiyalash va parvarishlash mas'uliyati va majburiyati haqida tushunchalar berish, milliy qonunchilik sohasida yaxshi xabardor bo'lishi va ijtimoiy-huquqiy maslahatlar berishi muhim sanaladi.

Bu holatlar alohida ehtiyojli farzand tarbiyalayotgan oilalarni barvaqt qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Malakali ijtimoiy xodim alohida ehtiyojli farzand tarbiyalayotgan oilalarni o'z vaqtida aniqlab, ularning ehtiyojlarini baholab, ular uchun kerakli sharoitlar yaratishga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy xodim ushbu toifa oilalarning shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishga hamda yordam berishga harakat qiladi.

Keys-menejment (yoki ishni boshqarish) – majmuaviy xizmatlarni taqdim etishning tan olingan usuli bo'lib, bunda ehtiyojlarni baholash, rejalashtirish, xizmatlarni taqdim etish va muvofiqlashtirish, erishilgan ijobiy o'zgarishlarni baholash kabi keys menejment bosqichlarining izchilligini saqlash majburiy hisoblanadi [1]. Keys-menejment shuningdek, vaziyat va holat yuzasidan ishlarni yuritish, vaziyatni boshqarish deb ham ataladi. Keys-menejment ijtimoiy himoya tizimining har qanday tashkilotida yoki xizmati faoliyatida qo'llanilishi lozim. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga kasbiy salohiyatli manzilli yordam ko'rsatish – keys-menejmentning asosiy vazifasi hisoblanadi. Keys-menejment usuli orqali yordam ko'rsatish ijtimoiy xizmatlarga muhtoj shaxslar va oilalar hayotining yaxshilanishiga yordam berib, mahalliy jamoatchilik va umuman butun jamiyat farovonligiga erishilishiga xizmat qiladi. Keys-menejmentning asosiy maqsadi – ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar

va oilalarning qiyin hayotiy vaziyatidan chiqishiga yordam beruvchi majmuaviy va sifatli xavfsiz hamda muvaffaqiyatli xizmatlarning samarali hamda o'z vaqtida ko'rsatilishidan iborat.

Keys-menejment jarayonida oila va bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy xodim oila va bola bilan hamkorlikda muammo va ehtiyojlarni aniqlaydi;
- aniqlangan muammolar yuzasidan zaruriy xizmatlar ko'rsatilishi ta'minlash uchun reja tuzadi va uni amalga oshiradi;
- oila va bolaga ko'rsatiladigan boshqa xizmatlarni muvofiqlashtirib boradi;
- ko'rsatilgan xizmatlar yuzasidan monitoring amalga oshiriladi va erishilgan natijalar sarhisob qilinadi.

Ijtimoiy xodim ijtimoiy xizmat va yordamga murojaat qilgan yoki aniqlangan shaxsning ijtimoiy himoyaga muhtojligini birlamchi baholash orqali belgilaydi. Ijtimoiy xodim birlamchi baholash orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsning hayoti faoliyatiga salbiy ta'sir qilayotgan xatar omillarini aniqlaydi, tahlil qiladi va xatar darajasini aniqlaydi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsning ijtimoiy holati va ehtiyojlarini joylarga chiqqan holda o'rgandadi. Birlamchi va majmuaviy baholash natijasiga ko'ra, tezkor, qisqa va uzoq muddatli individual ijtimoiy xizmatlar rejasi tuziladi. Birlamchi va majmuaviy baholash jarayoni orqali ijtimoiy xizmatlarga ehtiyojmand (shaxslar, oilalar)lar aniqlanadi.

Demak, alohida ehtiyojli bolalarni jamiyatga integratsiyasi va moslashuvini amalga oshirishda pedagog, psixolog mutaxassislar ota-onalarga majmuaviy yordam ko'rsatishlari zarur hisoblanadi.

Ota-onalarning alohida ehtiyojli bolalar tarbiyasi va rivojlanishiga oid pedagogik savodxonliklarini oshirishga doir o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Oilada alohida ehtiyojli farzandi bo'lgan ota-onalar bolalar rivojlanishi, ikkilamchi muammolarni bartaraf etish usul va vositalari bilan tanish emaslar.

2. Mamlakatda alohida ehtiyojli farzandi bo'lgan ota-onalarning bunday bola rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlar, tashviqot ishlari, ko'rsatilayotgan bepul yordam, konsultativ xizmatlar borasida ma'lumot berish va ular bilan bog'lanish mumkin bo'lgan telefon raqamlarini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilishni yo'lga qo'yish.

3. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida oilada alohida ehtiyojli bolalarining rivojlanishiga oid zamonaviy ta'lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi texnologiyarni tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гендер зўравонликка идоралараро жавоб қайтариш. Йўриқнома. – Тошкент: Baktria press, 2021. – Б. 7.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 июлдаги ПФ-175-сон “Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони. <https://lex.uz/docs>

3. https://t.me/ijtimoiyhimoya_official

4. Stat.uz

5. <https://lex.uz/docs/5865484>

PSIXOLOGIYADA SHAXS ETNIK IDENTIKLIGINING SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNINI

Dildora Nuraliyeva
Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Turli xalqlarning etnomadaniy o'ziga xosligini o'rganish an'anaviy ravishda shaxsning rivojlanishi va shakllanishini o'rganish usullaridan biridir. Umuman olganda, etnik-madaniy o'ziga xoslik yetarlicha o'rganilmagan, garchi so'nggi o'ttiz yillikda u bir qator tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga tortgan bo'lsa ham. Millatlararo nikohda tug'ilgan bolalarda etnomadaniy o'ziga xoslikni rivojlantirishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari va qiyinchiliklari mavjud.*

Kalit so'z: *oila, munosabatlar, shaxs, oilaviy diagnostika, qabilaviy munosabatlarni, kichik guruh.*

Bola o'zini "biz" ning bir qismi va etnik guruh inson o'z hayotida yordam izlayotgan yagona guruh emas sifatida his qilishi kerak. Bunday guruhlarga oilalar, partiyalar, diniy tashkilotlar, norasmiy yoshlar birlashmalari va boshqalar kiradi. Ko'p odamlar, jumladan, millatlararo nikohda bo'lgan bolalar ham ushbu guruhlardan biriga butunlay "cho'milishadi", ammo ularning yordami bilan psixologik barqarorlikka intilish har doim ham mumkin emas.

Qo'llab-quvvatlash unchalik barqaror emas, chunki guruhlarning tarkibi doimiy ravishda yangilanib turadi, ularning mavjud bo'lish davrlari vaqt bilan cheklangan, odamning o'zi ba'zi noto'g'ri xatti-harakatlari uchun guruhdan chiqarib yuborilishi mumkin. Bu kamchiliklarning barchasi etnik jamoadan mahrum. Bu avlodlararo guruh vaqt o'tishi bilan barqaror bo'lib, u o'z tarkibining barqarorligi bilan ajralib turadi va har bir shaxs barqaror etnik maqomga ega, uni etnik guruhdan "cheklash" mumkin emas. Aynan shu fazilatlar tufayli etnos inson uchun ishonchli yordam guruhidir. O'zining etnik guruhlarga mansubligini anglash orqali hayotda qo'llab-quvvatlovini yo'qotgan yosh avlod ijtimoiy notinchlik va nochorlik holatidan chiqish yo'lini izlaydi, psixologik xavfsizlik va barqarorlikni qo'lga kiritadi, o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his qiladi. Yagona farqlash/identifikatsiya jarayoni ijtimoiy o'ziga xoslikni shakllantirishga olib keladi, bu eng umumiy ma'noda "o'z" guruhini boshqa ijtimoiy obyektlar bilan taqqoslash jarayonining natijasidir. Aynan ijobiy ijtimoiy o'ziga xoslikni izlashda shaxs yoki guruh o'zini o'zi belgilashga, boshqalardan ajralib turishga, o'z avtonomiyalarini tasdiqlashga intiladi [1].

I.V. Maliygina fikricha, etnomadaniy o'ziga xoslik murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, uning mazmuni ham shaxsning umumiy madaniyat asosida mahalliy guruh bilan hamjamiyatni anglashi, ham shu asosda guruhning o'z birligini anglashidir. Ushbu jamoaning psixologik tajribasi, shuningdek, uning namoyon bo'lishining individual va jamoaviy shakllarida namoyon bo'ladi [2]. Etnik identiklik psixologik kategoriya bo'lib, uning mohiyati ma'lum bir etnik-madaniy jamoaga mansubligini anglashdan iborat. Uning tuzilishida odatda ikkita asosiy komponent ajralib turadi — kognitiv (bilim, o'z guruhining xususiyatlari to'g'risidagi g'oyalar va ma'lum

xususiyatlar asosida o'zini uning a'zosi sifatida anglash) va affektiv (o'z guruhining fazilatlarini baholash, a'zolikka munosabat. unda bu a'zolikning ahamiyati). Ba'zi mualliflar, shuningdek, etnik o'ziga identiklikning xulq-atvor komponentini ajratib ko'rsatishadi, uni nafaqat xabardorlik, balki o'zini ma'lum bir etnik guruhning a'zosi sifatida namoyon qilish, "turli etnik aloqada munosabatlari va harakatlar tizimini qurish" uchun haqiqiy mexanizm sifatida tushunishadi [3].

Bugungi kunga kelib, bolaning etnik-madaniy o'ziga xosligini rivojlantirish bosqichlarining yosh chegaralari aniqlangan va aniqlangan ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Etnik-madaniy guruh bilan diffuz identifikatsiyaning birinchi "ko'inishi"ni ko'pchilik mualliflar 3-4 yoshli bolalarda topadilar, hatto bir yoshga to'lmagan bolalar tomonidan ajoyib tashqi farqlarni (teri rangi, soch rangi) birlamchi idrok etishi haqida ma'lumotlar mavjud. Ammo deyarli barcha psixologlar J. Piajening fikriga qo'shiladilarki, bola o'z-o'zini aks ettirish inson uchun eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan erta o'smirlik davrida "reallashtirilgan" etnomadaniy o'ziga xoslikka erishadi. So'nggi yillarda tadqiqotchilar etnik o'ziga xoslikni shakllantirishning yana bir jihati – shaxsda etnik xususiyatlarning o'zgarishligi va barqarorligi tuyg'usining paydo bo'lishi – etnik doimiylikka alohida e'tibor qaratdilar. Olingan empirik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, etnik identiklikning shakllanishi jinsiy va irqiy xususiyatlarning doimiylikni o'zlashtirish jarayonlariga o'xshaydi: o'zini ma'lum bir etnik guruhga ongli ravishda bog'lash va etnik belgilarni qo'llash bola tug'ilishidan oldin sodir bo'ladi. Bundan tashqari, J.Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi tarafdorlari K.Okampo, M.Bernal va P.Naytlar etnik konstantalar o'smirlik davrida shaxs ongida tasdiqlanib, etnik-madaniy shakllanishni o'ziga xoslik va o'zgarishlikni bosqichma-bosqich anglash jarayoni asosiy psixosotsial xususiyatlar ham yakunlaydi, deb ta'kidlaydilar.

Zamonaviy tadqiqotchilar orasida etnomadaniy o'ziga xoslikning kognitiv va affektiv tarkibiy qismlarining paydo bo'lish ketma-ketligi masalasida birlik yo'q. Ba'zilarning fikricha, etnik-madaniy imtiyozlar faqat 9-10 yoshda juda muhim etnik va madaniy bilimlar asosida shakllanadi. Ammo boshqa tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bolalarning etnik guruhlariga bo'lgan afzalliklari har doim ham ushbu guruhlar haqidagi bilimlar bilan bog'liq emas, noto'g'ri qarashlar har qanday bilimdan oldin bo'lishi mumkin. Ammo qanday savollar munozarali bo'lib qolishidan qat'iy nazar, etnik-madaniy o'ziga xoslikni shakllantirish jarayonida millatlararo nikoh va monoetnik nikoh farzandi tarqoq o'zlikni anglashgacha bir qancha bosqichlarni bosib o'tishi aniq. O'smirlik davridagi bu jarayonning natijasi o'zlarining etnik-madaniy o'ziga xoslik, guruhga mansubligini hissiy va baholovchi anglashdir. Hozirgi vaqtda etnik-madaniy o'ziga xoslik yuzaki ondan tashqari, chuqurroq ongsiz qatlamni o'z ichiga oladi, degan g'oya tadqiqotchilarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda [4].

Insonning individual hayotining son-sanoqsiz holatlaridan tashqari, bolaning etnik-madaniy o'ziga xosligining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ijtimoiy muhit va guruhlararo munosabatlarning xususiyatlari bilan belgilanadigan bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Eng muhim psixologlar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi:

1) ijtimoiy-siyosiy sohadagi global o'zgarishlar va ular bilan bog'liq millatlararo munosabatlardagi o'zgarishlar;

2) etnik muhitning geterogenligi/bir xilligi. Birinchi guruh omillariga kelsak, ijtimoiy sohadagi muhim voqealar butun bir xalqning etnik-madaniy o'ziga xosligini faollashtirishga yordam berishi mumkin.

Kishilarning o'z etnik va madaniy mansubligini anglashi ularning ko'p millatli yoki monoetnik muhitda yashashiga qarab juda farq qiladi. Millatlararo muloqot

holati shaxsga o'zining va boshqa etnik madaniyatlarning xususiyatlari to'g'risida bilim olish uchun ko'proq imkoniyatlar, millatlararo tushunishni rivojlantirishga va muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Millatlararo muloqot tajribasining yetishmasligi, bir tomondan, bunday aloqalarga nisbatan kamroq moyillikni keltirib chiqaradi, boshqa tomondan, o'z etnik madaniyatiga kamroq qiziqish uyg'otadi. Turli xil geterogen muhitda yashovchi o'smirlar orasida ham etnik-madaniy o'ziga xoslikni anglashdagi farqlar aniqlandi. Ushbu ko'rsatkich Belarus va Qozog'istondagi ruslar o'rtasida taqqoslanganda, etnik o'ziga xoslik o'zining etnik xususiyatlariga ko'ra juda farq qiladigan madaniyatda yashovchilar orasida eng kuchli ifodalanganligi ma'lum bo'ldi.

Madaniy jihatdan yaqin guruh vakillari orasida yashovchi shaxslar uchun (Belarusda) o'z etnik kelib chiqishini bilish muhim muammoga aylanmaydi. Shunday qilib, bolaning etnik-madaniy o'ziga xosligi aniqroq tushuniladi va agar bola ko'p millatli muhitda yashasa, guruhlar o'rtasidagi madaniy farqlar haqidagi bilimlar ertaroq olinadi. Ammo bu bilimlar qanchalik to'g'ri va ijtimoiy munosabatlar qanchalik ijobiy ekanligi ko'p jihatdan uning qaysi guruhga – ko'pchilik yoki ozchilikka mansubligiga bog'liq. Britaniyalik ijtimoiy psixologlar Shotlandiyadagi pokistonlik muhojirlarning farzandlari etnik ko'pchilikni tashkil etuvchi shotlandiyaliklarning bolalariga qaraganda etnik guruhlar haqida ertaroq tushunchaga ega bo'lishlarini aniqladilar.

Ozchilik guruhidagi bolalar ommaviy axborot vositalari orqali ham, shaxsiy aloqalar orqali ham hukmron madaniyatni muqarrar ravishda bilishadi. Aksariyat guruhdagi tengdoshlari esa Pokiston madaniyati haqida umuman ma'lumotga ega bo'lmasligi mumkin, agar ularda bu millatga mansub qo'shnilar bo'lmasa ham. Ular asosan o'z guruhlar doirasida muloqot qiladilar va milliy ozchiliklar bilan aloqalar ularning madaniyati me'yorlarining ustunligi sharoitida davom etadi. Ammo ozchilik guruhi a'zolari ikki madaniyat o'rtasidagi farqlar haqida ma'lumotga ega bo'lsalar ham, bu ularning ozchilikka mansubligini tan olishlarini anglatmaydi.

AQSh, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiyada o'tkazilgan bolaning etnik-madaniy o'ziga xosligini rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarga turli irq va millat vakillari tasvirlangan qo'g'irchoqlar yoki rasmlar to'plami taqdim etilgan va ularni tanlash taklif qilingan. Ozchilikdagi bolalar ko'pincha "noto'g'ri" ogohlantirishlarni tanladilar, masalan, qora tanli bolalar oq qo'g'irchoqlarni tanlashdi. Oq tanli bolalar esa haqiqatan ham ularga o'xshash qo'g'irchoqlarni tanladilar. Ozchilik guruhlar a'zolarining dominant guruhga o'xshash tendensiyasi bolalarning ma'lum bir ijtimoiy tuzilmaning mavjudligini, jamiyatda ma'lum guruhlar boshqalarga qaraganda yuqori baholanishini erta anglashini aks ettiradi. Qo'g'irchoqlarni tanlashda, shakllanmagan etnik-madaniy o'ziga xoslikka ega bo'lgan yosh bolalar yuqori maqomga ega bo'lgan guruhga tegishli bo'lish istagini ko'rsatadilar yoki hatto o'zlarini unga tegishli deb hisoblaydilar.

Yoshi va etnik-madaniy o'ziga xoslikning rivojlanishi bilan etnik ozchiliklar vakillari odatda "guruh ichidagi yo'nalish" tomon siljishni boshdan kechiradilar. Ijtimoiylashtirish va inkulturatsiya jarayonida bola millatlararo farqlar haqida yangi bilimlarga ega bo'ladi va o'zining ma'lum bir madaniyatga mansubligini aniqroq belgilaydi. Shu bilan birga, E. Erikson shunday deb yozgan edi: "U hamma narsani biluvchi xudoning yaratilish rejasining bir qismi bo'lgan uning "turi" ekanligiga, bu turning paydo bo'lishi kosmik ahamiyatga ega bo'lgan voqea ekanligiga ishonch hosil qiladi va aynan u tanlangan elita va rahbarlar boshchiligida insoniyatning yagona to'g'ri xilma-xilligi ustidan qo'riqlash uchun tarix tomonidan tayinlangan".

Boshqacha aytganda, bolalarda ijobiy etnik-madaniy o'ziga xoslik maqsadli shakllantiriladi. Shunga qaramay, ko'pchilikning yuqori maqomli guruhi, agar aytishim mumkin bo'lsa, "ijtimoiy kerakli guruh" bola uchun ma'lumotnoma bo'lib qolishi mumkin, lekin u boshqa etnik-madaniy jamoaga "tayinlangan" bo'ladi. Buning sababi shundaki, etnomadaniy identifikatsiya jarayoni individning guruhga a'ziligini anglashigina emas, balki jamiyat o'zining o'sib borayotgan a'zosi qaysi guruh a'zosi ekanligini "hal qiluvchi" shaxsni guruh tomonidan qabul qilishidir. Shunga qaramay, noqulay guruhlararo taqqoslash holatida, etnik ozchiliklar vakillari etnik-madaniy o'ziga xoslikni aniqlashda keng strategiya tanloviga ega.

Birinchi strategiya — psixologik xavfsizlik va barqarorlik hissini ta'minlaydigan ijobiy etnik o'ziga xoslikni saqlab qolish yoki tiklashga intilish. Buning uchun ular taqqoslash mezonlarini qayta ko'rib chiqishdan iborat bo'lgan ijtimoiy ijod strategiyasidan foydalanadilar. Ushbu strategiyaning asosiy shakllari quyidagilardan iborat: birinchidan, taqqoslash uchun yangi asoslarni izlash. Masalan, taqqoslash uchun yangi mezonlardan foydalanish — 70-yillarda "qora go'zal" harakatini aytish mumkin. XX asr Amerika Qo'shma Shtatlarida, bu afro-amerikalik ozchilikning o'ziga xosligi ancha ijobiy bo'lishiga hissa qo'shgan va kichik qora tanli bolalar oq qo'g'irchoqlarni eng jozibali va ularga o'xshash deb tanlashni to'xtatgan. Ikkinchidan, kamroq muvaffaqiyatli yoki hatto zaif guruhlar taqqoslash uchun tanlov va shu tarzda subyektiv farovonlikni tiklash bilan asoslangan.

Shunday qilib, Germaniya qayta birlashtirilgandan so'ng, Sharqiy nemislar ijtimoiy iyerarxiyaning G'arbga qaraganda pastroq darajasida bo'lishdi, lekin ular o'zlarining noroziliklarini kuchli davlatga emas, balki g'arbiy nemislarning hukmron guruhiga qaratdilar. Etnik o'ziga xoslikni qabul qilganda, kamsitilgan ozchilik guruhlar a'zolari boshqa strategiyani tanlashlari mumkin — guruhni salbiy baholash bilan birga o'zini to'g'ri identifikatsiya qilishni qabul qilish shu kabilar. Shu bilan birga, ular salbiy etnik o'ziga xoslikni shakllantiradi. Ammo o'zini salbiy identifikatsiyalashni qabul qilgan odam o'z etnik guruhiga nisbatan salbiy fikrlarga boshqacha munosabatda bo'lishi mumkin. U ularni o'z guruhining boshqa a'zolari bilan bog'lashi, ular va o'zi o'rtasida psixologik chegaralarni o'rnatadi.

Jamiyat ijtimoiylashuv va inkulturatsiya jarayonida bolani ma'lum bir etnik guruhga "atribut qiladi". Natijada, ko'pchilik odamlarda tanlov muammosi yo'q, lekin ko'pchilik, birinchi navbatda, ozchilik guruhlar a'zolari va millatlararo nikohdan chiqqan bolalar u yoki bu jamoaga sodiqlik bo'yicha "doimiy ichki referendum" dan o'tadilar. Etnik-madaniy identifikatsiyalash jarayonida atribut mezonidan (boshqalar ularni nima deb qabul qiladi) tashqari, ichki tanlov mezoni ham muhim rol o'ynaydi (ular o'zlarini qanday deb bilishadi). Atribut mezoni, ayniqsa, etnik kelib chiqishi irqiy farqlar kabi juda aniq jismoniy xususiyatlarda ifodalanganda muhimdir.

Hatto o'zini jamiyat a'zosi deb tasniflash uchun obyektiv sabablarga ega bo'lgan odamlar, masalan, millatlararo nikohdan bo'lgan bolalar ham ko'pincha unga begona bo'lib chiqadilar: mulat o'zini kim deb bilishidan qat'i nazar, oq tanlilar uchun u afrikalikdir va qora tanlilar uchun u oqdir. Guruhlararo aniq tafovutlar bo'lmasa, "atributsiya" va shaxsning ichki tanlovi bir-biriga mos kelishi mumkin: guruh, agar u qon bilan "begona" bo'lsa ham, shaxsni qabul qiladi. Ota-onasi pasport bo'yicha kubalik bo'lgan, Tambovda tug'ilib o'sgan, rus madaniyatida tarbiyalangan shaxs o'z erkin tanlovini bemalol amalga oshirishi mumkin: u nafaqat o'zini rus deb bilishi, balki ona tili, xulq-atvori va tashqi ko'rinishiga mos kelmaydi. boshqalar uni ushbu etnik-madaniy jamoaga havola qilishlariga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi.

Chet el etnik-madaniy guruh bilan monoetnik o'ziga xoslik to'liq assimilyatsiyaga, ya'ni an'analari, madaniyati, qadriyatlari, me'yorlari, xorijiy guruhning tilini o'zlashtirishga, unda to'liq tarqalib ketishgacha olib keladi. Ikkala o'zaro ta'sir qiluvchi guruhlar bilan kuchli identifikatsiya ikki etnik o'ziga xoslikni shakllantirishga olib keladi. Bunday o'ziga xoslikka ega bo'lgan odamlar ikkala guruhning xususiyatlariga ega, ularning ikkala madaniyat bilan o'xshashligini bilishadi. Bir tadqiqotning qozoq ikki tillilari nafaqat qozoqlar, balki rus etnik guruhi bilan ham ajralib turadi: ular o'zlariga xos bo'lgan fazilatlarini, ularning nuqtai nazari bo'yicha, odatiy qozoq va rus tiliga xos bo'lgan va ularning yarmidan ko'pi bilan bog'langan. Ularda (58,5%) ruslarga xos xarakterga ega ekanligiga rozi bo'lishdi. Natijalar ularning "qozoqcha" guruh ichidagi favoritizmi va rus xalqi vakillariga nisbatan salbiy munosabati yo'qligini ko'rsatdi.

Ko'p o'ziga xoslik inson uchun eng foydali bo'lib, unga bir guruh tajribasidan boshqasiga moslashish, o'z qadriyatlarini buzmasdan boshqa madaniyat boyliklarini o'zlashtirish uchun foydalanish imkonini beradi. Bunday odamlar vositachilar yoki madaniyatlar o'rtasidagi ko'pri deb ataladi. Ikki etnik jamoaga mansubligini bilish va qabul qilish millatlararo nikoh farzandlarining shaxsiy o'sishiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Ammo zaif, aniq ifodalanmagan etnik identiklik ham o'zining, ham chet el etnik guruhlari bilan ham mumkin. Bunday holda, odam ikki madaniyat o'rtasida o'zgarib turadi, ularning har birining me'yorlari va qadriyatlarini to'g'ri o'zlashtirmaydi. O'ziga xosliklari bilan chalkash bo'lgan bunday tashqarida bo'lganlar ko'pincha ichki nizolarni boshdan kechiradilar. Shuning uchun ular tashqi tomondan tajovuzkor millatchilar bo'lishlari mumkin — ularning qaysi biri jamiyatda yuqori mavqega ega ekanligiga qarab, o'zlarining yoki chet el guruhining foydasiga identikligini o'zgartiradilar. Bu kundalik hayotda uchraydi va empirik tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlanadi.

Qozog'istonda o'tkazilgan tadqiqotda qozoq tilini yaxshi bilmaydigan va rus madaniyatiga to'liq kiritilmagan marginal odamlar ruslarga nisbatan noto'g'ri qarashga moyil bo'lgan. Javoblarga ko'ra, ular ruslar bilan yaqin ijtimoiy aloqadan qochishadi va ularni o'z qarindoshlari va oila a'zolari sifatida qabul qilishdan juda ehtiyot bo'lishadi. 45% ruslar bilan turmush qurishda qarindoshlar bilan muammolar bo'lishiga ishonishadi, 25% bunday nikoh ehtimolini istisno qilishdi va 25% javob berishga qiynalgan, ya'ni ular noqulaylik va ikkilanishni boshdan kechirgan. Millatlararo aloqalarga nisbatan salbiy munosabatni namoyon etib, natijada guruh ichidagi aloqalarni afzal ko'rgan marginallar etnik-madaniy o'ziga xoslik ziddiyatini hal qilishga harakat qilmoqda.

Millatlararo nikohdagi bolalarning etnik identikligi ikki millatli xarakterga ega bo'lib, bu ikki madaniyatning ta'siri (boshqa omillar bilan birga) bilan bog'liq bo'lib, etnik-madaniy o'ziga xoslikda o'z izini qoldiradi. Millatlararo nikohdagi bolalarning etnik-madaniy o'ziga xosligi ikki tomonlama yo'nalishga ega bo'lib, uning bir tomoni dolzarb bo'lib, biz "bu yerda va hozir" bo'lgan etnik-madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan o'ziga xoslik sifatida tushunamiz, ikkinchi tomoni – potensial bo'lib, hozirda mavjud bo'lmagan etnomadaniy xususiyatlar bilan ajratiladi.

Bizning fikrimizcha, millatlararo nikohda bolalarning etnik-madaniy o'ziga xosligining noaniq yo'nalishining sababi shundaki, ular turli madaniyatlarning tashuvchisi bo'lgan turli millatga mansub ota-onalarga ega, buning natijasida bunday bolalarda ota-onalar bilan bog'liq manfaatlar va qadriyatlar shakllanadi. Shu bilan birga, hozirda mavjud bo'lmagan etnik-madaniy xususiyatlar millatlararo nikohdan

bo'lgan bolalar uchun ma'lumotdir. Bolalarning etnik-madaniy o'ziga xosligi otanonaning madaniyatini shakllantirish jarayoni bilan bog'liq. Bolalarning ota-onalari bilan muloqoti tabiatan ikki tilli va shuning uchun etnik-madaniy o'ziga xoslik omillari sifatida ikki til o'z foydalanuvchilarini ikki etnik madaniyat bilan bog'laydi. Millatlararo nikohdan bo'lgan bolalar yuqori etnik bag'rikenglik bilan ajralib turadi.

Ko'plab psixologlarning fikriga ko'ra, bola erta o'smirlik davrida "reallashtirilgan" shaxsga erishadi. Etnomadaniy o'ziga xoslikni shakllantirish jarayonining yakuniy bosqichida shaxsda etnomadaniy guruh vakili sifatida kuchli ijobiy tuyg'u paydo bo'ladi. Etnomadaniy-geterogen jamiyatda shakllangan va ichkilashtirilgan, "erishilgan" identiklik ikki madaniyatli hisoblanadi. Bimadaniy o'ziga xoslik nafaqat o'z etnik-madaniy guruhining, balki jamiyatning hukmron madaniyatining ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishni o'z ichiga oladi.

Etnik o'ziga xoslikning shakllanishi va rivojlanishining yosh jihatlari E.P.Belinskaya, S.L.Buxareva, S.A.Kadikova, I.N.Tatuiko, N.S.Chernisheva asarlarida ko'rib chiqilgan. Ushbu psixologik hodisaning ko'plab talqinlarida etnik identiklik — bu o'z etnik guruhga mansubligini anglash yoki ma'lum bir jamoaga xos bo'lgan muayyan xatti-harakatlarga yo'naltirilganlik yoki o'zini a'zo sifatida muayyan etnik guruhga mansub anglash va baholash degan g'oya aniqlangan. Etnik identiklik ma'lum bir elita tomonidan ishlab chiqilishi, ma'lum bir etnik guruhni shakllantirishi yoki jamoatchilik fikrini tartibga solish vositasi sifatida harakat qilishi mumkin.

O'smirlik davrida etnik o'ziga xoslikni shakllantirishning muhim omillari, L.N.Berejnova fikriga ko'ra, millatlararo o'zaro ta'sir tajribasi va etnik-aloha muhitining xususiyatlari (ya'ni, yashash muhitining turi — shahar yoki qishloq), shuningdek, shaxsning o'zini o'zi anglashining rivojlanish darajasi (uning kognitiv murakkabligi, aks ettirish) hisoblanadi.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Андреева Г. М. Психология социального познания. – М., 1997. С.112.
2. Малыгина И. В. Этнокультурная идентичность (Онтология, морфология, динамика): дис. ... д-ра филос. наук. – М., 2005. С.102.
3. Дробижева Л.М., Аклаев А.Р., Коротеева В.В., Солдатова Г.У. Демократизация и образы национализма в Российской Федерации. – М., 1996. С.23-24.
4. Ocampo K.A., Bernal M.E., Knight G.P. Gender, race, and ethnicity: the sequencing of social constancies // *Ethnic identity: Formation and transmission among Hispanics and other minorities.* – Albany: State University of New York, 1993. – P.11-30.
5. Phinney J. Ethnic identity in adolescents and adults Review of research // *Psychological Bulletin*, 1990. – Vol. 108(3). – P. 499–514.
6. Солдатова Г. У. Психология межэтнической напряженности. – М., 1998. – С.34-35.

JAHON PSIXOLOGIYA FANIDA YOLG'IZLIK HISSINING TADQIQ QILINISHI

Mahliyo Yuldasheva
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Yolg'izlik hissini tushuntirishdagi qarama-qarshi qarashlar qamrovi, uning ko'pqirrali ifodalanishi, ijtimoiy hodisa sifatidagi o'lchovining murakkabligi, muammoga oid ishlab chiqilgan metodikalarning nisbatan kamligi mazkur muammoning yechimini topishda qiyinchilik tug'diradi. Mazkur maqolada jahon psixologiya fani doirasida yolg'izlik hissi, uning namoyon bo'lishi kabi masalalarning ko'rib chiqilishi yuzasidan nazariy tahlillar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *yolg'izlik, hissiyot, kechinma.*

Kirish: Yolg'izlik subyektiv kechinma sifatida insonlar hayotlari davomida uning turli ko'rinishlariga duch keladilar. Psixologiya fanida yolg'izlik hissining talqini shartli ravishda bir necha yo'nalish doirasida olib boriladi. Yolg'izlik psixologik hodisa sifatida hissiyot (emotsiya, affekt), kechinma, holat, jarayon, munosabat kabi tushunchalar bilan bog'laniladi. Yolg'izlik hissiyot sifatida bir insonning boshqa insondan farqli tomonini anglatadi, bu esa muloqot jarayonida psixologik to'siqni yaratadi. Atrofdagilar tomonidan qabul qilinmaslik hissi mehr-muhabbat, do'stlik, o'zaro tushunish kabi yaqin munosabatlarning mavjud emasligiga bog'lanadi. Yolg'izlik jarayon sifatida umume'tirof etilgan me'yorlar, an'analar va qadriyatlar tizimining shaxs tomonidan inkor etilishi natijasida individning ijtimoiy hayotda subyektiv mavqeini yo'qotishiga olib keladi. Yolg'izlik munosabat sifatida borliqni qadr-qimmatga yo'naltirilgan obyekt sifatida qabul qilmasligini ifodalaydi. Individ shaxslararo munosabatlarini tahlil qila olmas ekan, o'zini jamiyatning bir bo'lagi sifatida idrok qila olmaydi. Yolg'izlik ehtiyoj sifatida borliq va undagi insonlar bilan yaqin, do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yishni ongli darajada xohlamaslikni ifodalaydi. Yolg'izlik holat sifatida individning ichki ruhiy yaxlitligining yo'qotilishidir. Bunda tashqi olam bilan o'zaro munosabatlar izdan chiqadi, real hamda istalgan ijtimoiy aloqalar o'rtasidagi uyg'unlik yo'qoladi. Yolg'izlik holati zerikish, tushkunlik, ichki bo'shliqni his qilish, xavotirlik kabi turli psixik ko'rinishlar bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. Bunda hattoki patologik xarakterdagi psixik buzilishlar va gallyutsinasiyalar ham ro'y berishi mumkin. Yaqqol ko'rinishlarda u muloqotga o'ta zaruriy ehtiyojlarni ifodalaydi. Muloqotga ehtiyoj qondirilmagan holatlarda inson xayoliy tarzda reallikdan uzoqlashgan ko'rinishlarda suhbatdoshlar obrazini yaratadi. Bu xatti-harakatlar inson hayotini to'ldiruvchi mezon sifatida qabul qilinadi va me'yor deb baholanadi.

Nazariy-metodologik sharh. G.M.Tixonov "yolg'izlik" tushunchasining tahlilidagi murakkablik uning binarliligidan, ya'ni ikki tomonlamaligidan, deb ta'kidlaydi [4]. Bu, bir tomondan, inson mavjudligining individualligi bo'lsa, ikkinchi tomondan individning shaxslararo munosabatlarga ehtiyoj sezadigan jamiyat a'zosi sifatidagi qarama-qarshiliklarning mavjudligidandir. Bir qator olimlar, yolg'izlikni o'z tarkibiga

ko'plab shakllar va shu shakllarning har bir insonda turlicha his qilinishini namoyon qiladigan kechinma, deb atashadi. Sotsiologiyaga oid izohli lug'atda "yolg'izlik – yakkalanish va ijtimoiy munosabatlarning mavjud emasligi" deb ta'riflanadi [3; 259].

Jahon psixologiya fanida yolg'izlikka holat sifatida ta'rif berilganda subyektiv va obyektiv o'ziga xoslik farqlanadi. Subyektiv holatga g'am-g'ussa, xavotirlik, to'liqsizlik hissi, tashlab qo'yilganlik, deprivatsiya ko'rinishlaridan – ishonch va o'zaro tushunishning yetishmasligi kiradi. Obyektiv holat esa majburiy jismoniy yoki ijtimoiy yakkalanishdan, shaxslararo munosabatlarning to'xtatilishi bilan bog'liq vaziyatlar sababli yuzaga keladi. G.R. Shagivaleyeva, yolg'izlik turlarini insonning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlaridan kelib chiqib farqlaydi:

- a) insonning voqelikdagi narsa-hodisalar bilan o'zaro munosabatlari nuqtai nazaridan: jismoniy, kommunikativ, emotsional, ma'naviy yolg'izlik;
- b) vaqt davomiyligi nuqtai nazaridan: onda-sonda va surunkali yuz beradigan yolg'izlik; v) kelib chiqishi nuqtai nazaridan: ixtiyoriy va majburiy yolg'izlik;
- c) holat sifatidagi mezon bo'yicha: yoqimsiz yolg'izlik, yoqimli yolg'izlik, majburiy yolg'izlik, ekzistensial yolg'izlik [5].

Amerikalik professor, psixiatr I. Yalom yolg'izlik turlarini yakkalanish toifalariga bog'liq holatda tahlil qiladi:

- 1) ijtimoiy yakkalanish orqali yuzaga keladigan yolg'izlik;
- 2) emotsional yakkalanish orqali yuzaga keladigan yolg'izlik.

Olimning fikricha, yolg'izlik uch shaklda namoyon bo'ladi: kundalik, ekstremal-vaziyatli va sun'iy (eksperimental va davolovchi) [6].

E. N. Klimentyeva yolg'izlikning asosiy shakllari sifatida jismoniy yolg'izlikni obyektiv vaziyat, deb qaragan. Unda inson majburiy yoki ixtiyoriy tarzda yolg'iz qoladi. Olimaning fikricha, ruhiy yolg'izlik o'zgaralar tomonidan qabul qilinmaslikni his qilish holatini bildiradi [2].

D. I. Yang yolg'izlik shakllarini ajratishda uning davomiyligiga e'tiborni qaratgan. Olim yolg'izlikning uchta shaklini farqlab bergan: uzoq vaqt davomida ijtimoiy aloqalarning buzilishidan kelib chiqadigan surunkali yolg'izlik; hayotdagi stress hodisalar (yaqinlarni yo'qotish yoki o'lim, ajrashish) natijasida yuzaga keladigan vaziyatli yolg'izlik; qisqa muddatli va tez-tez takrorlanadigan o'tkinchi yolg'izlik [8].

Yolg'izlikni insonning psixik holati bilan bog'liqlikdagi tavsiflari ko'plab mualliflar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, ekzistensial yondashuvga ko'ra, olamda o'z shaxsiyatining ahamiyati va qimmatini ko'rsatish hissi V.A.Andrusenko tomonidan; kognitiv yondashuvga ko'ra, ichki ruhiy o'z-o'zini anglashda odamovilik olamiga yashirinish hodisasi sifatida S.Kyerkegor tomonidan; gender yondashuv bo'yicha, dilkash bog'liqlikning yetishmasligi sifatida R.Veys tomonidan; kommunikativ yondashuvga ko'ra, ijtimoiy aloqalarning yo'qligi muammosi sifatida D.Yang tomonidan izlanishlar olib borilgan [1].

Yolg'izlikning muloqotdagi muammo sifatidagi tahlilini K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.G.Ambraumova, G.P.Orlov, I.S.Kon, A.A.Leontyevlar olib borishgan. Mazkur tadqiqotlarning mazmun-mohiyati individni shaxslararo muloqot jarayonida suhbatdoshidan o'zi uchun kerakli hissiy-emotsional xayrixohlik hissini topa olmasligi va natijada yolg'izlikni his qilishidan iborat bo'lgan [7].

Zamonaviy jamiyatda insondagi yolg'izlik hissi majburiy ravishdagi muloqotga kirishganida ko'proq namoyon bo'ladi. Bunday holatlarni ishda, oila davrasida, do'stlar orasida yoki begonalar davrasida ham kuzatishimiz mumkin. Ijtimoiy aloqalarning kattagina qismi haqiqiy muloqotning ko'rsatkichi sanalmaydi, bu atrofdagilar bilan

uyg'unlikdan dalolat bermaydi. O'zaro munosabatlarning kengayishi – muloqotning tashqi tomoni hisoblanadi va u muloqot mazmuniga sifatini ko'rinish bermaydi.

Amerikalik psixologlar U.A. Sadler va T.B.Jonson "Yolg'izlikdan anomiyagacha" deb nomlangan tadqiqot ishlarida yolg'izlikning to'rt darajali o'lchovini taklif qilganlar. Bular: koinot, madaniy, ijtimoiy va shaxslararo o'lchovli darajalardir. Ularning fikricha, yolg'izlikni ifodalaydigan barcha toifalar umumiylikka ega. Ya'ni "Yolg'izlik – shaxs hayotiy olamining tarkibiy qismi bo'lgan munosabatlardagi mutanosiblikni izdan chiqarishidan guvohlik beradi. Stress inson ichki olamining asosiy muhitida yolg'izlikni vujudga keltiradi, frustratsiya darajasining o'zgarishi esa yolg'izlik toifasini ifodalaydi" [6].

Xulosa. Yolg'izlikshaxslararo va guruhlararo munosabatlarda namoyon bo'ladi. Unda ijtimoiy yakkalanishning ostrakizm (quvg'inlik), surib chiqarish, zid munosabatlarda bo'lmoq kabi ko'rinishlari ifodalanadi. Natijada inson o'zini begona, yolg'iz, ortiqcha va o'z gardaniga mas'uliyatni olishga qodir bo'lmagan odamdek his qiladi. Ijtimoiy yolg'izlikning o'sishi jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar bilan uzviy ravishda bog'liq. Xususan, ijtimoiylashuv jarayonining jamiyatdagi o'zgarishlarga mos ravishda taraqqiy etishi, mobillik, guruhlarning qisqa muddatga tuzilishi, ijtimoiy kutishlarning real vaziyatlarga mos tushmasligi bilan bog'liq. Ijtimoiy mavqeiga nisbatan xavotirlik hissi insonlarni ijtimoiy faoliyat mahsuli hisoblanmish muloqotga undaydi. Shaxslararo yolg'izlik ijtimoiy yolg'izlik bilan bog'liq va insonning shaxsiy ahamiyatining u uchun qadrlil bo'lgan insonlar tomonidan tan olinmasligi natijasida kelib chiqadi.

Jahon psixologiya fanida yolg'izlikni tavsiflaydigan shakllari, turlari va toifalarining xilma-xilligini e'tiborga olgan holda tadqiqotlar olib borilganini o'rganishga asosiy e'tiborimizni qaratdik. Shu nuqtai nazardan yolg'izlik hissiga ta'rif berishda uning obyektiv va subyektiv qirralariga urg'u berish lozim. Yolg'izlik hissi inson tasavvurida jamiyat bilan bog'liq ravishda tarkibiy qismlarga ajratiladigan, ular tomonidan tashqi va ichki sabablarining mavjudligi mazmunida baholanadigan hodisadir. Ushbu hodisa zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-madaniy, texnologik xarakterdagi global o'zgarishlar sharoitida yangi hodisa, deb tavsiflanishi mumkin emas, chunki uning ifodalanish ildizlari qadimga borib taqaladi. Boshqa tomondan, insonning jamoaviy tabiati shaxsning o'zini o'zi takomillashtirishni amalga oshirish imkoniyatlarining chegaralanganligidan kelib chiqadigan kechinma ko'rinishida ifodalanadi. Bunday vaziyatda yolg'izlikni tabiiy emotsional ehtiyojning yetishmasligi natijasida individual tarzda vujudga keladigan turli xil determinantlardan tashkil topgan kechinma sifatida tavsiflash mumkin. Uning turli-tumanliligi yolg'izlik hissining ifodalanish kuchi, mazkur hisning kechirilish chuqurligi bilan farqlanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Корчагина С.Г. Психология одиночества / С. Г. Корчагина. – М.: Московский психолого-социальный институт, 2008. – 228 с.
2. Климентьева Е.Н. Одиночество как социальная проблема современной России / Е. Н. Климентьева // Вестник Адыгейского государственного университета, 2009. – № 3. – С. 97–101.
3. Кравченко С. А. Социологический энциклопедический русско-английский словарь / С.А.Кравченко. – М.: ООО Издательство АСТ, 2004. – 511 с.
4. Тихонова, Е. В. Социально-психологическая диагностика студентов как основа профессиональной ориентации / Е. В. Тихонова // Знание. Понимание. Умение, 2008. – № 2. – С. 49–54.
5. Шагивалеева Г.Р. Одиночество и особенности его переживания студентами: монография / Г.Р. Шагивалеева. - Елабуга: Алмедиа, 2007. - С. 1155.

6. Yuldasheva M.B. Talabalarda yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – 121 b.

7. Yuldasheva, M. B., & Samindjonova, Z. I. Types of Loneliness: Concept and Essence // Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2023. – №20. – PP. 52-56.

8. Yuldasheva M. B. Treatments and prevention of social-psychological feeling of loneliness // Актуальные вопросы современной науки, 2019. – PP. 17-19.

MEHNAT MIGRANTLARI FARZANGLARINING BILIM OLIHI VA PSIXOLOGIK RIVOJLANISH PREDIKATLARI

Shaymardon Norov
ISFT instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada migrant oila farzandlarining psixologik muammolari yozilgan. Migrant oila farzandlarining ijtimoiylashuvida yuzaga keladigan muammolar ko'rsatilgan. Xorij olimlari tomonidan migrant oila farzandlarining psixologik holatini aniqlashga qaratilgan eksperimental tadqiqot yoritilgan. Ularga psixologik xizmat ko'rsatish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: migrant oila, migrant farzand, psixologik xizmat, xorij olimlari.

XXI asrda jamiyatning eng katta boyligi – inson deb e'tirof etilgan bo'lib, uning rivojlanish maqsadi ham fuqarolarning yashash joyi, hayot tarzini erkin tanlashini ta'minlashdan iborat bo'lib bormoqda. Jamiyat a'zosining manfaatlarini himoya qilish, fuqaro sifatida to'laqonli hayot kechirib, mavjud intellektual ijodiy va jismoniy imkoniyatlarini har tomonlama to'liq namoyon etishi uchun, u istiqomat qilayotgan 78 jamiyat, mas'ul ijtimoiy-siyosiy institut sifatida, davlat kafolati vazifasini o'tashga majburdir. Migratsiya va ko'chish kengroq uzoq muddatli ijtimoiy, xavfsizlik, siyosiy va iqtisodiy kontekslarda sodir bo'lishini e'tirof etishning o'zi tarixiy ahamiyatga egadir. Biz chuqur global o'zgarishlar davrida ekanligimizni va kundalik hayotimizdagi o'zgarishlar migratsiya sodir bo'layotgan va muhokama qilinadigan hozirgi muhitga ta'sir qilishini tan olgan holda yashamoqdamiz. So'nggi paytlarda psixologiya fanida migrantlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammosiga katta e'tibor qaratilmoqda. Qayd etilishicha, oilaning boshqa til va madaniy an'anaga ega bo'lgan boshqa mamlakat yoki mintaqaga ko'chib o'tishi natijasida odatiy turmush sharoitlarining keskin o'zgarishi bilan nafaqat katta yoshli migrantlarga, balki ularning farzandlariga ham yetarlicha o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Boshqa davlatga ko'chib o'tish, turmush tarzi, ijtimoiy muhitning o'zgarishi nafaqat qarashlarning o'zgarishi, balki yangi ongli munosabatlar, shaxsiy ma'nolar, xatti-harakatlar va faoliyatning shakllanishi bilan birga kechadi.

Migrantlar odatdagi ijtimoiy muhit – tanishlari, do'stlari, qarindoshlaridan uzoqdaligi sababli, yangi muhitga moslashishda, dolzarb muammolarni hal qilishda va hayotiy ehtiyojlarni qondirishda katta rol o'ynaydigan ijtimoiy munosabatlarga talab yuqori bo'ladi. Hozirgi ijtimoiy-pedagogik vaziyat, ko'p madaniyatli ta'limning rivojlanishi ko'p

madaniyatli ta'lim makonida migrant bolalarni ijtimoiy-psixologik qo'llabquvvatlash va himoya qilishning metodologiyasi va nazariy asoslarini asoslash zarurligini ilgari surdi. Migrant bolalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash muammolarini o'rganishga qiziqish ko'p madaniyatli ta'limning zamonaviy voqeliklari va majburiy migratsiya bilan bog'liq geosiyosiy ijtimoiy-pedagogik vaziyat bilan belgilanadi. Ushbu muammoning dolzarbligi, shuningdek, mavjud infratuzilmaning - ta'lim, milliy ta'lim va bolalik ekologiyasining buzilishi, bolalarning millatlararo nizolarga jalb etilishi, ijtimoiy-pedagogik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq [4].

V.V.Gritsenko va N.E.Shustovaning ta'kidlashicha, yangi madaniyat bilan uchrashuv odatda "madaniy zarba" bilan birga keladi. Shu bilan birga, migrantlar odatdagi turmush tarzini, do'stlarini, mavqeini va ishini yo'qotish, yangi madaniyatni rad etish yoki qabul qilmaslik hissi, keyingi ijtimoiy va psixologik harakatlar uchun zarur bo'lgan taranglik tufayli mahrumlik hissini boshdan kechiradilar. Natijada, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tizimida moslashishda qiyinchiliklar, ijtimoiy rollar va rol kutishlarining buzilishi, o'z-o'zini identifikatsiyalash va qadriyat yo'nalishidagi chalkashlik, madaniy farqlarni anglash natijasida paydo bo'lgan depressiv hislar ko'zga tashalanadi [1].

V.V.Gritsenko individual va guruh darajasida moslashish muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichlarini o'rgangan. Guruh darajasidagi ko'rsatkichlarga ijobiy etnik o'ziga xoslik, o'z guruhi va qabul qiluvchi jamiyatning ijobiy imidji, guruhlararo bag'rikenglik va boshqalar kirsas, shaxsiy darajadagi ko'rsatkichlarga hissiy qulaylik, o'zini o'zi qadrlash, o'zini-o'zi anglash, kasbiy faoliyatdan qoniqish. faoliyat, faollik, hamkorlik qilish istagi, ichki o'zini o'zi boshqarish, ichki nazorat kabilarni kiritadi. V.V.Gritsenko va N.E.Shustovaning yozishicha, migratsiya jarayonida "bolalar muammolari"ning butun majmuasi paydo bo'ladi. Ular orasida eng muhimlariga:

– yashash joyini majburiy o'zgartirish va odatiy qarindoshlik va oilaviy, tabiiy-hududiy, madaniy, kommunikativ va boshqa aloqalar tuzilishini buzish bilan bog'liq psixologik stress;

– shaxs inqirozi, qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar tizimidagi buzilishlar;

– hayotning turli jabhalaridan va o'zidan norozilik;

– bolaning yangi muloqot muhitiga ko'nikishdagi qiyinchiliklar, ko'pincha tashvish va ruhiy zo'riqish, begonalashish va rad etish, nizo va tajovuzkorlikning kuchayishi kiradi [2].

Ruhiy salomatlikning asosiy mezonlari orasida odatda quyidagilar hisobga olinadi: ruhiy farovonlik holatlari, og'riqli ruhiy ko'rinishlarning yo'qligi, aks ettirish va javob berishning yetarliligi, hissiy-irodaviy va kognitiv sohalarning yoshga mos yetuklik darajasi, shaxsning mikroijtimoiy munosabatlarga moslashishi, xatti-harakatni boshqarish va hayotiy maqsadlarni belgilash qobiliyati, shuningdek ularga erishishda tegishli darajadagi faoliyatni qo'llab-quvvatlash va shu kabilar. Mehnat migratsiyasi sharoitida normallik va patologiya o'rtasidagi chegara kamroq aniqlanadi va xiralashadi.

Mehnat migrantlari orasida ruhiy salomatlik muammolari turlicha bo'lib, insonning deyarli barcha sohalariga ta'sir qiladi. Hissiy buzilishlar migrantlarning asosiy muammolaridan biridir. Agar hissiy sohani barqarorlashtirish va tuzatish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rilmasa, ijtimoiy-psixologik moslashuvning turli shakllari paydo bo'lishi mumkin. Migrant oilalar farzandlari eng qiyin ahvolga tushib qolishadi. Mehnat migrantlari bolalarining hayoti qo'rquv, tashvish va tushkunlikka to'la. Ushbu holatlarning uzoq davom etishi ko'pincha salbiy xatti-harakatlarga olib keladi, bu stressga reaksiya va hissiy tanglik ko'rsatkichidir. Bolada tajovuzkorlik,

jahldorlik, passivlik va qoʻrquv namoyon boʻlishi mumkin, bu shaxsning kognitiv-affektiv sohasidagi buzilishlarni koʻrsatadi.

Natijada quyidagilar kuzatiladi:

- oʻz his-tuygʻularini aniqlash va tasvirlashda qiyinchiliklar;
- hissiy tajribalar va tana hissiyotlarini farqlashda qiyinchiliklar;
- diqqatni ichki tajribadan koʻra tashqi voqealarga koʻproq qaratish;
- muloqot qobiliyatlarini buzish;
- ramzlash qobiliyatining pasayishi, bu fantaziya va tasavvurning yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Farzandlarining psixologik muammolari yuzasidan psixologga murojaat qilgan migrant ota-onalarning shikoyatlari asosan qoʻrquv bilan bogʻliq. Har bir inson bir vaqtning oʻzida tashvish va qoʻrquvni boshdan kechiradi. Odatda, ular ratsional ravishda yengib, muammo va nizolarni hal qilish orqali yoʻqoladi. Agar bu sodir boʻlmasa, tashvish va qoʻrquv darajasini pasaytirishga qaratilgan xavotirlanish va notoʻgʻri xatti-harakatlar bilan tavsiflangan doimiy buzilishlar paydo boʻladi.

Migrant oila farzandlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, rivojlanish shakllari boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarga koʻra, bolalar eng koʻp qoʻrquvga duchor boʻlganliklari aniqlangan. Olingan maʼlumotlarga asoslanib, qoʻrquvlar shartli ravishda guruhlariga boʻlingan: jismoniy zarar yetkazish bilan bogʻliq boʻlganlar (kutilmagan tovushlar, hujum, yongʻin, tabiiy ofatlar, urush); oʻz va ota-onasining oʻlimidan qoʻrqish; dahshatli tushlar va qorongʻulik qoʻrquvi; ijtimoiy vositachilik qoʻrquvi (odamlar, ota-onalar, jazo, yolgʻizlik). Qoʻrquvning oʻrtacha soni oʻgʻil bolalar uchun 28,8% va qizlar uchun 34,6% ni tashkil etgan. Amalga oshirilgan metodika natijalari tahlili shuni koʻrsatadiki, qizlar oʻgʻil bolalarga qaraganda qoʻrquvga koʻproq moyil boʻladi, barcha yoshdagi migrant oilaning bolalari qoʻrquvga moyil va asosiy vazifa ularning sonini kamaytirish yoki ularni yengib oʻtishni tezlashtirishdir. Mazkur psixokorreksion tadbirlar migrant ota-onalar bilan amalga oshirilishi lozim. Maʼlumotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, ular urush va yongʻindan (38,8%), hujumdan, yaqinlarining kasalligi va oʻlimidan (49%) va yolgʻiz qolishdan (12,2%) qoʻrqish ehtimoli yuqori. Ota-onalarning 63,7 foizi oʻrtacha darajadan sezilarli darajada yuqori boʻlgan qoʻrquv darajasiga ega, bu shubhasiz oʻz farzandiga taʼsir qilishi mumkin. Oiladagi qoʻrquvlar sonining sezilarli darajada oshishi ijtimoiy-madaniy muhitdagi va ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar taʼsiri ostida yuzaga keladi, bu, albatta, tashvish, beqarorlik va oʻziga ishonchsizlikning kuchayishiga taʼsir qiladi.

Migrant oilalarning ota-onalari va anʼanaviy oilalarning bir xil soni (30%) oʻz farzandlarini tarbiyalashda ijtimoiy talabchanlik uslubidan foydalanadilar. Bu uslub oilaviy taʼlimning eng qulay uslubidir, chunki ota-ona bolaning ishlari va rejalari bilan qiziqadi, bolaga hamma narsada yordam berishga harakat qiladi, unga hamdard boʻladi, ota-ona bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini yuqori baholaydi va u bilan faxrlanishda his-tuygʻularini his qildiradi. Migrant oilalarda kamdan-kam hollarda ota-onalar “simbioz” tarbiya uslubidan foydalanadilar – 26%, aksincha, anʼanaviy oilalarda bu tarbiya uslubi ota-onalar orasida ustunlik qiladi – 52%. Bunday tarbiya uslubi bilan bolaning intizomi va xulq-atvori ustidan qatʼiy nazorat yoʻq, masalan, “avtoritar gipersotsializatsiya”ga oʻxshash. Ota-onaning qattiq nazorati yoʻqligiga (yoki qisman mavjudligiga) qaramay, bola oʻqishni muvaffaqiyatli bajara oladi [5].

Migrant oilalarda “infantilizm” uslubining koʻrsatkichlari past darajada (4%). Namunadan faqat 1% ota-ona shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatsizlikni va bolani oʻz farzandiga infantilizatsiya qilish istagini belgilaydi. Bolaning qiziqishlari, sevimli mashgʻulotlari, fikrlari va his-tuygʻulari ota-onaga bolalarcha va beparvo tuyuladi. Bola

yomon moslashgan, muvaffaqiyatsiz va yomon ta'sirlarga ochiq ko'rinadi. Ota-ona o'z farzandiga ishonmaydi va uning muvaffaqiyati va qobiliyatsizligidan g'azablanadi. Shu munosabat bilan ota-ona 90 farzandini hayot qiyinchiliklaridan himoya qiladi va uning harakatlarini qattiq nazorat qilishga harakat qiladi [3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гриценко В.В. Социально-психологическая адаптация детей из семей мигрантов. – Москва: Форум, 2011.
2. Гриценко В.В. Социально-психологическая адаптация переселенцев в России // В.В.Гриценко. – М.: Ин-т психологии РАН, 2002. –251 с.
3. Schwartz S. Ya, Bardi A. Value hierarchies across cultures: Taking a similarities perspective //Journal of Cross-Cultural Psychology, 2001. – Vol. 32. – PP. 268-290.
4. Schwartz S.H., Ros M. Values in the West: A theoretical and empirical challenge to the Individualism Collectivism cultural dimension // World Psychology, 1995. – Vol. 1. – PP.99-122.
5. Lundberg O. Defining and implementing social integration: a case study of school leaders' and practitioners' work with newly arrived im/migrant and refugee students // International Journal of Qualitative Studies on Health and Well-Being, 2020. – Vol. 15.

IQTIDORLI O'QUVCHILAR O'QUV MOTIVATSIYASI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHI

Dilnovoz Xodjayeva
*O'zMU psixologiya kafedrasini
tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtidorli o'quvchilarda ta'lim motivatsiyasining psixologik xususiyatlari, ta'lim sharoitlari ochib berilgan. Bundan tashqari, iqtidorli talabalar bilan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: motiv, motivatsiya, iqtidor, innovatsion o'rganish, pedagog, psixolog, yosh xususiyatlari.

Maqola mavzusining dolzarbligi zamonaviy jamiyatda insonning ta'lim va intellektual darajasi, shaxsiy va ijodiy salohiyati muammolariga katta qiziqish bilan belgilanadi. Bolalar iste'dodini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish zamonaviy ta'limning dolzarb vazifasi — har bir bolaning salohiyatini ochib berish bilan bog'liq.

Motivatsion soha insonning tashqi dunyo va o'zi bilan o'zaro munosabatlarning turli tomonlarini belgilaydigan eng muhim ajralmas aqliy shakllanishlardan biridir. Ko'pgina tadqiqotlar shaxsning motivatsiyasi va motivatsion sohasini o'rganishga bag'ishlangan (L. S. Vigotskiy, A. N. Leontyev, D. N. Uznadze, A. K. Markova, V. I. Kovalyov, D. A. Leontiev, V. G. Aseev, V. I. Levin, G. Xoll, A. Maslou, X. Xekxausen, B. Bloom, R. De Charms, T. Amabil) [6; 103-121].

Hozirgi vaqtda psixologiya juda ko'p ma'lumotlarni to'pladi va ikkilamchi motivatsiyaning bir qator tushunchalarini taklif qildi. Muvaffaqiyatga erishish uchun

motivatsiyaning turli jihatlarini, shu jumladan ta'lim faoliyati muvaffaqiyatiga hissa qo'shishni tushuntirish. Faoliyat motivatsiyasi sohasidagi keyingi aniq empirik tadqiqotlarning dolzarbligi o'rganishdagi motivatsion o'zgaruvchilarning roli va turli xil ta'lim salohiyatiga ega bo'lgan maktab o'quvchilarini aniqlash va ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish uchun ta'lim motivlarini tashxislash, shakllantirish va rivojlantirish zarurati. tomonidan belgilanadi. Ta'lim psixologiyasining yetakchi mutaxassislari samarali o'quv jarayonini qurishda o'quvchining ichki o'quv motivatsiyasi manbasiga murojaat qilish muhimligini ta'kidlaydilar (P. Y. Galperin, V. V. Davidov, A. K. Markova, A. I. Podolskiy, N. F. Talzina, G. A. Sukerman, G. D. B. Elkonin) [7; 46-63].

Ta'lim jarayonining motivatsion qismlarining ishlash mexanizmlarini takomillashtirishga yordam beradigan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini osonlashtirish mumkin. Hozirgi vaqtda psixologiya juda ko'p ma'lumotlarni to'pladi va ikkilamchi motivatsiyaning bir qator tushunchalarini taklif qildi. Muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyaning turli jihatlarini, shu jumladan ta'lim faoliyati muvaffaqiyatiga hissa qo'shishni tushuntirish. Faoliyat motivatsiyasi sohasidagi keyingi aniq empirik tadqiqotlarning dolzarbligi o'rganishdagi motivatsion o'zgaruvchilarning roli va turli xil ta'lim salohiyatiga ega bo'lgan maktab o'quvchilarini aniqlash va ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish uchun ta'lim motivlarini tashxislash, shakllantirish va rivojlantirish zarurati. tomonidan belgilanadi. Ta'lim psixologiyasining yetakchi mutaxassislari samarali o'quv jarayonini qurishda o'quvchining ichki o'quv motivatsiyasi manbasiga murojaat qilish muhimligini ta'kidlaydilar (P. Y. Galperin, V. V. Davidov, A. K. Markova, A. I. Podolskiy, N. F. Talzina, G. A. Sukerman, G. D. B. Elkonin).

O'quv jarayonini motivatsion qismlarining ishlash mexanizmlarini takomillashtirishga yordam beradigan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali osonlashtirish mumkin. V. V. Davidov va D. B. Elkoninning rivojlanish ta'limi nazariyasiga asoslangan asosiy motivatsion komponentlarni aks ettiruvchi innovatsion o'qitish texnologiyasini, aqliy jarayonlarning bosqichma-bosqich nazariyasini rivojlantirish katta ahamiyatga ega, bu ta'lim amaliyotida yanada samarali qo'llab-quvvatlanishi mumkin.

Motivatsiya ishlashning "iqtidorli" darajasi bilan qanday bog'liq? Iqtidorli va iqtidorli talabalarning motivatsion xususiyatlari qanday? Motivatsiyaning qaysi jihatlar iqtidorni amalga oshirishga yordam beradi yoki to'sqinlik qiladi? Motivatsiya va iqtidorli o'quvchilar bo'yicha tadqiqotlar va nazariya uzoq tarixga ega va uni ilgari qayd etilganidek shaxsiy va ekologik toifalarga ajratish mumkin (Clinkenbeard, 1996, 2006). Ko'proq psixologik yoki shaxsiy tomondan, iqtidorli deb topilgan bolalar va kattalarning motivatsion xususiyatlarini o'rgangan katta tadqiqotlar to'plami mavjud. Iqtidorlilikning ko'plab nazariyalari va iqtidorlilarning ta'riflari hatto motivatsiyani belgilovchi xususiyat sifatida o'z ichiga oladi (masalan, Renzulli, 1986, uning uch halqali iqtidor modelida ijodkorlik va o'rtacha darajadan yuqori qobiliyat bilan birga vazifa majburiyatini o'z ichiga olgan) [2; 140-146].

Ko'proq ta'lim tomondan, iqtidorli o'quvchilar uchun ta'lim dasturlari va amaliyotining muhim natijasi sifatida motivatsiyani, ayniqsa yutuq motivatsiyasi bilan bog'liq o'zgaruvchilarni o'rganadigan tadqiqotlar to'plami o'sib bormoqda. Ikkala istiqbol ham iqtidorli o'quvchilarning motivatsiyasini tushunish uchun muhimdir. Ushbu maqolaning maqsadi iqtidorli o'quvchilar va ularning ta'limiga ta'siri uchun bir nechta zamonaviy motivatsiya nazariyalarini tahlil qilishdir. Motivatsiya va iqtidorli o'quvchilar bo'yicha tanlangan empirik tadqiqotlar, agar mavjud bo'lsa, nazariyalar va ularning oqibatlarini tasvirlash uchun ishlatiladi.

Kutish-qiyamat nazariyasi. Zamonaviy kutish-qiyamat nazariyalari qisman

Atkinsonning (1964) yutuq motivatsiyasi bo'yicha ishiga asoslanadi, bu esa McClellandning (1961) muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyojni ko'proq psixoanalitik tadqiqotiga asoslanadi. Kutishlar — bu odamlarning topshiriqda muvaffaqiyatga erisha olishlari haqidagi e'tiqodlari va qadriyatlar — ular nima uchun muayyan vazifani bajarishni xohlashlari haqidagi e'tiqodlari (Schunk va boshq., 2008). Motivatsiyalangan xatti-harakatlar biz vazifani bajarishga arziydi deb o'ylaganimizda va biz buni qila olamiz deb umid qilganimizda paydo bo'ladi. Bundan tashqari, boshqa ko'plab motivatsiya nazariyalarini kutish-qiymat doirasidan ko'rib chiqish mumkin. Masalan, atribut va o'z-o'zini samaradorlik nazariyalari (keyinroq muhokama qilinadi) kutish bilan bog'liq: men bu vazifani bajara olaman deb o'ylaymanmi? Maqsad va ichki motivatsiya nazariyalari qiymat bilan bog'liq: Men bu vazifani bajarishni xohlaymanmi? Ekkls va uning hamkasblari (masalan, Eccles, Wigfield va Schiefele, 1998) har tomonlama kutilgan qiymat modelini ishlab chiqdilar va uning turli komponentlari bo'yicha tadqiqotlar olib bordilar. Ularning modelida kutishlar o'quvchilarning kelajakdagi vazifani yoki ma'lum bir mavzu sohasida qanchalik yaxshi ishlashi mumkinligi haqidagi ishonchlarini o'z ichiga oladi va yuqoriroq kutishlar katta motivatsiya va muvaffaqiyat natijalari bilan bog'liq [4; 179-183].

Ichki va tashqi motivatsiya. Motivatsiya odatda ikkita qarama-qarshi turga bo'linadi: ichki va tashqi (Schunk va boshq., 2008). O'rganishga yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan odamlar qiziqish, qiziquvchan va odatda vazifaga e'tibor qaratishadi. Tashqi motivatsiyaga ega bo'lgan odamlarni vazifaning o'zidan ko'ra ko'proq o'rganish natijalari (baholar, mukofotlar va boshqalar) qiziqtiradi. Ko'pchiligimiz vazifaga qarab o'zgarishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi sabablarning kombinatsiyasi bilan turtki bo'lamiz. Ichki va tashqi motivatsiya kontekstga qarab shaxslarda o'zgarishi mumkin bo'lsa-da, ular ko'pincha shaxsiy xususiyatlar sifatida tekshiriladi. Ko'pgina tadqiqotchilar iqtidorli talabalar motivatsiya ko'rsatkichlari bo'yicha boshqa talabalarga qaraganda ko'proq "ichki" ball olishlarini aniqladilar. Olszewski-Kubilius, Kulieke va Krasney (1988) iqtidorli talabalar o'rganishning ichki sabablarini aks ettiruvchi motivatsiya ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori ball olishlarini ko'rsatadigan bir nechta tadqiqotlarni ko'rib chiqdilar, shu jumladan ichki nazorat o'chog'i va ichki motivatsiya va avtonomiya o'lchovlari. Csikszentmihalyi, Rathunde va Whalen (1993) intellektual iqtidorli o'smirlar ustida bo'ylama tadqiqot o'tkazdilar va o'rtacha o'quvchilar bilan solishtirganda, ular o'qish, fikrlash va yolg'izlik uchun ko'proq ichki motivatsiya ko'rsatishini aniqladilar. Gottfried va Gottfried (1996) iqtidorli talabalar (IQ 130 dan yuqori bo'lgan) taqqoslash guruhiga qaraganda akademik ichki motivatsiya o'lchovi bo'yicha sezilarli darajada yuqori ball olishlarini aniqladilar.

Atribut nazariyasi. Atribut nazariyasi shaxslar tabiiy ravishda yutuq (va boshqa) natijalarning sabablarini izlashlarini taxmin qiladi. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik uchun atributlar lokusga (ichki yoki tashqi), vaqt o'tishi bilan barqarorlikka va boshqarilishga qarab farq qiladi (Weiner, 1985). Nedensel atributlar bizning muvaffaqiyatlarimiz va muvaffaqiyatsizliklarimiz uchun beradigan sabablar yoki tushuntirishlardir va ular harakat uchun muhim ahamiyatga ega. Talaba topshiriq bo'yicha muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka olib keladigan atribut (qobiliyat, harakat, omad va boshqalar.) talabaning kelajakda shunga o'xshash vazifalarga qanday yondashishiga ta'sir qiladi. Muvaffaqiyat uchun ko'proq ijobiy atributlar-bu ichki va boshqariladigan narsalar, masalan, vazifani tushunganingiz va ko'p ishlaganingiz uchun yaxshi ish qilganingizga ishonish. Muvaffaqiyat uchun kamroq ijobiy atributlar, doimiy harakat qilish motivatsiyasi nuqtai nazaridan, o'qituvchi sizni yoqtirgani yoki vazifa oson bo'lgani uchun yaxshi ish qilganingizga ishonishni o'z ichiga oladi.

Muvaffaqiyatsizlik uchun ijobiy atributlarga (yoki hech bo'lmaganda kutilganidan kamroq yaxshi ishlashga) kuch etishmasligi va strategiyadan noto'g'ri foydalanish kiradi va muvaffaqiyatsizlik uchun salbiy atributlarga qobiliyat etishmasligi va omadsizlik kiradi, chunki ular talabning nazoratidan tashqarida bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. – New York: Plenum Press, 1985.
2. Emerick L. J. Academic underachievement among the gifted: Students' perceptions of factors that reverse the pattern // Gifted Child Quarterly, 1992. – № 36, PP. 140–146.
3. Epstein J. L. Family structures and student motivation: A developmental perspective / C. Ames & R. Ames (Eds.), Research on motivation in education: Vol. 3. Goals and cognitions. San Diego, CA: Academic Press, 1989.
4. Gottfried A. E., Gottfried A. W. A longitudinal study of academic intrinsic motivation in intellectually gifted children: Childhood through early adolescence // Gifted Child Quarterly, 1996. – № 40. – PP. 179–183.
5. McClelland D. The achieving society. New York: 1961 The Free Press.
6. Маклаков А.Г. Общая психология. – Спб.: Питер, 2008.
7. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. – М.: Наука, 2005.

OILADA ER-XOTIN MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ziynat Olimjonova
ISFT instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nikoh va oila munosabatlarining o'ziga xos jihatlari hamda er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, yurtimiz psixologlarining oila va nikoh masalalari, jumladan, oilada er-xotin munosabatlari, unda tenglik, hamjihatlik va o'zaro hurmat hissini yuzaga keltirish, yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash to'g'risida ilmiy qarashlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, nikoh-oila, er-xotin, jins va gender, qadriyat, rashk, hiyonat.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatining rivojlanishi iqtisodiy va siyosiy asoslarini mustahkamlash bilangina emas, balki ijtimoiy fuqarolikning o'sishi va odamlarning farovonligi uchun asos yaratishni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda respublikamiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan barcha islohotlar aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan. Nikoh-oila muammosi azal-azaldan keng ijtimoiy muammo bo'lib, ilmiy jamoatchilik diqqat markazida bo'lib kelgan. Asrlar davom etgan evolyutsion taraqqiyotni bosib o'tar ekan, nikoh-oila munosabatlarida ham o'ziga xos tabiiylik shakllangan va bu tabiiy omillar milliy qadriyatlar sifatida shaxs xulqiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-

xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur" [1]. Darhaqiqat, asrlar davomida o'z e'tirofini topgan va diniy-axloqiy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy munosabatlarda halol yashash, mehnat qilish, farzand tarbiyasi ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbaidir. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishi asosi oiladan boshlanadi. Oila hamjihatlikda yashashi o'zaro hurmat qaror topmog' lozim, lekin hozirgi paytga kelib nikoh ajrimlari soni 2021-yilda Respublikamizda 39 000 dan ortiq oilaviy ajrimlar qayd etildi.

Oila a'zolari o'rtasida sodir bo'layotgan murakkab munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, O'zbekistonlik olimlar M.Davletshin, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inovlar tomonidan o'rganilgan. Ularda ko'proq o'zbek oilasiga xos urf-odatlar, an'analar udumlar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Oila institutini ijtimoiy voqelik sifatida uning qonunyatlarini tahlil etar ekanmiz, bu o'rinda biz oilaviy, o'zaro munosabatlarga xos bo'lgan munosabatining psixologik tabiatdan kelib chiqishi, va dinamikasiga e'tiborni qaratgan ko'plab tadqiqotlarda ilgari surilgan ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bildik.

Er-xotin o'rtasidagi munosabatning yaxshi bo'lishi haqida mamlakatimiz yetakchi psixologlaridan biri G.B.Shoumarov ham o'z izlanishlari natijasida oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotinning baxtiyor, tinch-totuv yashashlarida o'zaro qovushuvi muhim rol o'ynaydi degan fikrlarni bayon etganlar. O'zaro qovushishlarni shartli ravishda uchta tarkibiy qismga ajratish:

1. Biologik qovushuv.
2. Psixologik qovushuv.
3. Sotsial (ijtimoiy) qovushuvlar deb ko'rsatgan [2].

Ko'pincha, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan muammoli tomonlar va ziddiyatli vaziyatlar sog'lom munosabatlarni shakllantira olmaslik natijasida paydo bo'ladi, Shuningdek, oilaviy munosabatlardagi axloqiy iqlim va psixologik muhit, oilaning ijtimoiy faolligi va tuzilishi ko'p jihatdan turmush o'rtoqlarning o'ziga va umumiy qonuniyatlariga emas, balki oilaning kelib chiqishiga va uning keyingi faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan o'ziga xos holatlarga bog'liq.

O'zbek oilalarining o'ziga xosligi va etnopsixologik tomondan betakrorligi Z.A.Rasulovning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Aynan ushbu ish metodologik asos sifatida zamonaviy o'zbeklar nikoh-oila munosabatlarining rivojlanishida milliy qadriyatlarining o'rnini o'rganishga zamin yaratadi.

Zamonaviy psixologiyada o'rganilayotgan muammo bo'yicha adabiyotlar tahlilini umumlashtirish va tizimlashtirish oilaga moslashuv tushunchasiga aniqlik kiritish, uning xususiyatlarini ajratish imkonini beradi. Oila kichik guruh sifatida unga xos ba'zi bir tavsiflarga ega, oiladagi moslashuv jarayonini o'rganishda ijtimoiy-psixologik moslashuvning namoyon bo'lish qonuniyatlari ham ko'zga tashlanadi. Oilani mustahkamlovchi ikki muhim omilni V.A.Sisenko belgilab beradi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy ta'minlanganlik darajasi va vaqt ajratilishi.
2. Ijtimoiy-psixologik faktlar oilaviy hayotdan mamnun bo'lish darajasi.

Shu ikki faktor oilani mustahkam qilishda V.A.Sisenko asosiy shart deb biladi. Er-xotinning bir-biridan uzoqlashishi yoki bir-birini tarbiyalashga urinish oilaviy munosabatlarni buzilishiga olib keladi.

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil hal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg'un

qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini uchun o'z oilasida qo'llay bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davridagi qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi:

- oilaviy hayotni bir maromda kechishini ta'minlash, ishlash, o'qish yoki boshqa masalalarni hal qilish uchun vaqtning yetishmasligi;
- vaqtni yaxshi o'tkazish, ko'ngilxushliklarning cheklanganligi;
- yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi;
- iqtisodiy qiyinchiliklar [3].

Nikohdagi muvaffaqiyatsizlik ko'p jihatdan sherik tanlashda xatolar bilan belgilanadi: tanlangan kishi aslida shaxsiy xususiyatlarga ega emas yoki uning psixofiziologik xususiyatlari, qarashlari va qadriyatlarining uyg'unligi. Er va xotinning tarbiyaning turli siyosiy, madaniy, diniy qarashlarini aks ettiruvchi biologik va axloqiy omillar nuqtai nazaridan bir-biriga mos kelishi, juda muhimdir.

Oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda qo'shimcha omillarga:

1. Er-xotinning oilani saqlashga intilishi.
2. Oila manfaati yo'lida kelishib ish qilish.
3. Oilaviy ishlarda tashabbus ko'rsatib, ikkalasi ham baravar hissa qo'shishi.
4. Mavjud muammolarni oilani unutmagan holda birgalikda yechish.
5. Qiyin va og'ir kunlarda birga bo'lish, bir-birini qo'llab-quvvatlash.
6. Er-xotin tashqi ko'rinishida estetik jozibalikni saqlash.
7. Oilada o'zini tuta bilish.
8. Oilada ishonch, quvonch, mehr-oqibat sharoitini yaratish kabilar kiradi.

Ko'pchilik to'ydan oldin harakat qilib, ko'ngil olib, to'y o'tgandan so'ng e'tiborsizlik boshlanadi. Endi maqsadga erishildi deb, harakatni susaytiradi. Lekin aksincha, hamma e'tibor harakat to'ydan keyin boshlanishi kerak, chunki arzimagan narsa, hattoki kiyimga, o'z ko'rinishiga e'tiborsizlik ko'ngil qolishiga olib keladi. To'ydan so'ng oilada umumiy qiziqishlar bo'lishiga harakat qilish kerak, bu oilani mustahkamlaydi. Fundamentni shakllantiradi. Bolalar oilani mustahkamlaydi, lekin umumiy ma'naviy qiziqishlar ham bo'lishi kerak. Oila baxtli bo'lishida turmush qurganlar bir-birlariga do'stona munosabatda bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Chunki, yoshlikda turmush qurib, yillar davomida ikki shaxs bir-biriga bog'lanib qoladi. Ular bir-birini tarbiyalaydi, bir-birini o'rganadi [4].

Xulosa qilib aytganda oilaviy munosabatlarning ko'pi psixologik xususiyatlar bilan bog'liq hisoblanadi. Insonlar jamiyatda munosib oila qurib yashashlari. umuman olganda oiladagi barcha psixologik jarayonlar olingan tarbiya, ijtimoiylashuv jarayonlariga ham bog'liqdir. Agar oilada er va xotin munosabatlari mustahkam bo'lsa ular baxtli bo'lishga intilishsa va bir birlarini tushunib yashashsa albatta oilani mustahkam qilishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: Ozbekiston, 2017.
2. Shoumarov G.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2011.
3. Андреева Т. В. Семейная психология. – СПб.: Речь, 2004.
4. Karimova V.K. Oila psixalogiyasi. – Toshkent, 2008.

SHAXSDA MEHNAT MOTIVATSIYASI KO'RSATKICHLARINING PASAYISHI

Samariddin Xusanov

*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
institutining tayanch doktranti*

Annotatsiya. *Mazkur maqola shaxsda mehnat motivatsiyasi ko'rsatkichlarining pasayishi sabablari va ularning namoyon bo'lishi haqidadir. Bundan tashqari maqolada mehnat motivatsiyasini oshirish bo'yicha ayrim tavsiyalari ham o'rin olgan.*

Kalit so'zlar: *motivatsiya, mehnat motivatsiyasi, ehtiyoj, farovon turmush, kelajak, ishonch yetishmasligi, fokus yetishmasligi, yo'nalishning yetishmasligi, stress, pul.*

Mehnat motivatsiyasi – bu shaxsda ichki va tashqi tomondan paydo bo'ladigan, uni ishlashga undaydigan xatti-harakatlar bilan namoyon bo'ladigan kuchli xohish hisoblanadi. Inson hayotining asosiy vaqti ma'lum ma'noda ish jarayonida kechadi. Bu jarayonning qanchalik samarali yoki samarisiz ekanligi insondagi mehnat qilish motivatsiyasiga bevosita bog'liqdir. Shuni aytish joizki, har doim g'ayratli bo'lish qiyin, chunki bu ongli harakatni talab qiladi. O'tmish va kelajak haqidagi fikrlar vaqti-vaqti bilan qaytib keladi, bu bizni hozirgi kunga e'tibor qaratishimizga va o'zgartirib bo'lmaydigan narsalar haqida tashvishlanmasligimizga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, har bir kishi ertami-kechmi psixologik chuqurga tushib qoladi. Va bu undan chiqish qobiliyati va o'rta odamni buyukdan ajratib turadi. Agar siz o'zingizni qanday rag'batlantirishni bilsangiz, unda siz oqim bilan ketayotgan odamdan bir necha baravar ko'proq va yaxshiroq ish qilasiz.

Motivatsiyani ushlab turishdan ko'ra olish ancha oson. Faoliyatni sozlash uchun ba'zan bir necha daqiqa kifoya qiladi. Ammo uzoq vaqt davomida motivatsiyani saqlab qolish juda qiyin.

Motivatsiyani yo'qotishimizning uchta sababi bor :

- Ishonch yetishmasligi. Agar maqsadga erishish mumkinligiga ishonish bo'lmasa, unda harakat qilishning nima keragi bor?
- Fokus yetishmasligi. Agar aniq nimaga erishish kerakligi aniq bo'lmasa, unda kerakli narsani qilayotganingizni qanday tushunish kerak?
- Yo'nalishning yetishmasligi. Agar siz aniq nima qilishni bilmasangiz, unda qanday qilib o'zingizni yutuqlarga undashingiz mumkin?

Endi vaziyatni qanday o'zgartirishingiz mumkinligini ko'rib chiqamiz.

O'zingizga bo'lgan ishonchni qanday oshirish mumkin? Ehtimol, noaniqlik motivatsiyaning eng katta dushmanidir. Bu siz bilan sodir bo'lganda, hayotingizda allaqachon mavjud bo'lgan narsalarni anglab, haqiqatan ham xohlagan narsangizga e'tiboringizni qarating. Hozirgi vaqtda boshingizda tom, suv va oziq-ovqat borligini tushunish uchun yaqin odamlar muammoni hal qilishning yarmi. Endi o'tmishdagi xatolar va muvaffaqiyatsizliklar haqida o'ylamasdan, qanday qilib ko'proq narsaga erishish haqida o'ylash kerak. Axir, bu o'ziga bo'lgan ishonchni buzadigan qorong'i o'tmish haqidagi fikrlar.

Siz ularga hasad qilishdan ko'ra, boshqa odamlar yoki kompaniyalarning muvaffaqiyatlaridan ozuqa olishingiz va ilhom olishingiz kerak. Hasad paydo bo'lishi bilanoq, jabrlanuvchi sindromi ham u bilan rivojlanadi. Siz o'zingizni boshqalardan ko'ra yomonroq narsa deb o'ylay boshlaysiz va boshqalarning xizmatlarini kamaytirishga e'tibor qaratasiz. Buyuklarning muvaffaqiyatlaridan Ilhom olish motivatsiyani rivojlantirish va to'g'ri fikrlash va o'zingiz ustida ishlash orqali hamma narsaga erishish mumkinligini tushunishning ajoyib usuli hisoblanadi.

Bir nechta ro'yxatlarni yarating: kuchli tomonlaringiz, o'tmishdagi muvaffaqiyatlaringiz, aniq narsalar va hozirgi daqiqalar uchun minnatdorlik. Siz aniq qila oladigan narsani qiling. Bu sizni ijobiy, proaktiv fikrlashga undaydi va salbiy fikrlashga yo'l qo'ymaydi.

Qanday qilib aniq fokusni yaratish kerak? O'zingiz xohlagan narsa haqida o'ylash o'rniga, siz istamagan narsaga qanchalik tez-tez e'tibor qaratasiz? Biz odatda qo'rquv nuqtai nazaridan o'ylaymiz. Biz qashshoqlik, yolg'izlik, hurmatsizlikdan qo'rqamiz. Bunday fikrlashning muammosi shundaki, uning davomida harakat qilish istagi paydo bo'lmaydi, faqat o'zini himoya qiladi. Shunga ko'ra, motivatsiya haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Agar siz qo'rquv obyektivi orqali o'ylayotganingizni tushungan bo'lsangiz, birinchi qadam asosiy maqsadga e'tibor qaratishdir. Maqsadni aniq belgilab, harakat qilishni boshlash osonroq bo'ladi.

Kambag'al bo'lishdan qo'rqish, odam hech qanday harakat qilmasligiga olib keladi va o'zini vaziyat bilan kelishishga majbur qiladi. Boy bo'lish rejasini tuzish sizni shunday qilmasligi mumkin, lekin sizni qo'rquvga emas, balki imkoniyatlarga qaratishga majbur qiladi. Bu o'z-o'zini o'rganish, ko'nikmalarga ega bo'lish va o'zingizni yaxshilash haqida o'ylashga imkon beradi. Hech kim kafolat bermaydi, ammo imkoniyat bir necha bor oshadi. Bundan tashqari, siz to'g'ri narsalar bilan shug'ullanishni boshlaysiz va keraksiz narsalar va fikrlarga vaqt va kuch sarflamaydiz.

Yo'nalishni qanday ishlab chiqish kerak? Siz boradigan yo'nalishni tanlaysiz. Agar diqqat asosiy maqsadni tanlashni anglatrsa, unda yo'nalish unga erishish uchun har kuni strategiyadir.

Yo'nalishning yetishmasligi motivatsiyani butunlay yo'q qiladi, chunki keyingi qadam qanday bo'lishini tushunmaslik kechiktirishga olib keladi. Odatiy misol, o'z blogiga kirishga qaror qilgan va ko'p vaqtini boshqa odamlarning bloglarini o'qishga bag'ishlagan kishi bo'ladi. Bu muhim jarayon, ammo bunday o'qish faqat zarar keltiradigan va dangasalik uchun bahona bo'lgan payt keladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, muvaffaqiyatga olib keladigan faoliyatni aniqlash kerak. Va eng muhimi, qaysi qadamlar ishlayotganini va qaysi biri ishlamayotganligini va nima uchun ekanligini payqash.

Masalan, Blogger bo'lishni istagan kishi uchun bu shunday bo'lishi mumkin:

- Kontent yozish.
- Tegishli mavzularni o'rganish.
- Boshqa blogerlar bilan tanishish.
- Saytni optimallashtirish va dizayn.
- Sharhlarga javoblar.
- Boshqa bloglarni o'qish.

Bundan tashqari ba'zi psixologik saytlarda stress, har bir ishni kechiktirish, foydasiz odatlar kabilarni ham motivatsiyani pasaytiruvchi sabablar sifatida qabul qilishgan.

Qachonlardir sizda ham charchoq va umidsizlik bo'lganda o'zingizga "hammasidan voz kechdim, qo'limdan kelmaydi" deb aytgan bo'lishingiz mumkin, Bunday holatlarning sababi nima bo'lishidan qat'i nazar, stress holatida motivatsiyani saqlab qolish qiyin.

Har bir ishni kechiktirish birdaniga namoyon bo'lmaydi. Ko'pincha biz nima qilishni va qanday vazifani bajarishni bilmaymiz. Noaniqlik keyinchalik dangasalik va kechikishni keltirib chiqaradi va ular motivatsiyani yo'q qiladi.

Foydasiz odatlar ham motivatsiya yo'qligining eng muhim va keng tarqalgan sababidir. Agar tanangiz vazifani bajarishga odatlangan bo'lsa, har kuni ertalab soat beshda turish uchun ilhomlantiruvchi moslamalar kerak emas. Shunday qilib, motivatsiyaning siri aniq odatlarga bog'liq. Ular bizga avtomatik ravishda maqsadlar tomon harakat qilish imkonini beradi. Biz buni qilishga odatlanib qolamiz.

